



Sirdaryo viloyati  
Statistika boshqarmasi

**AXBOROTNOMA**  
*Sirdaryo viloyatining  
ijtimoiy-iqtisodiy holati*

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MILLIY STATISTIKA QO‘MITASI**

**SIRDARYO VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**SIRDARYO VILOYATINING  
STATISTIK AXBOROTNOMASI**

**2025-yil  
YANVAR-IYUN**

**Guliston – 2025**



## SO‘Z BOSHI

Sirdaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy holati – Viloyatning ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanishi, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlar holatini kompleks tavsiflovchi Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasining choraklik nashri hisoblanadi. Statistik axborotnomada 2025-yilning yanvar-iyun oylari yakunlari bo‘yicha Sirdaryo viloyatining asosiy statistik ko‘rsatkichlari chop etilgan. Nashr 14 ta tematik qismlardan tashkil topgan bo‘lib, u asosiy makroiqtisodiy indikatorlarni, shuningdek, yalpi hududiy mahsulotni ishlab chiqarish, korxonalar va tashkilotlar, jumladan kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyati, investitsion faollik, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi, sanoat, qurilish, bozor xizmatlarining rivojlanish dinamikasi to‘g‘risidagi statistika ma‘lumotlarini o‘z ichiga oladi. Axborotnomada sanoat, qurilish, qishloq xo‘jaligi, transport va aloqa, ichki va tashqi savdo, ulgurji va chakana savdo, mehnat bozori, va demografik holat to‘g‘risidagi tahliliy ma‘lumotlar keng yoritilgan. Tezkor hisoblar asosidagi ma‘lumotlarga kelgusida aniqlik kiritilishi mumkin bo‘lgan ko‘rsatkichlar keltirilmoqda.



## MUNDARIJA

Nomi	bet.
<b>MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLAR</b>	<b>5</b>
<b>I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT</b>	<b>6-10</b>
<b>II. SANOAT</b>	<b>11-18</b>
<b>III. QISHLOQ, O'RMON VA BALIQCHILIK XO'JALIGI</b>	<b>19-32</b>
<b>IV. INVESTITSİYALAR VA QURILISH</b>	<b>33-47</b>
<b>V. XIZMATLAR</b>	<b>48-53</b>
<b>VI. TRANSPORT</b>	<b>54-58</b>
<b>VII. ISTE'MOL BOZORI</b>	<b>59-62</b>
<b>VIII. TASHQI IQTISODIY ALOQALAR</b>	<b>63-71</b>
<b>IX. KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI</b>	<b>72-84</b>
<b>X. KORXONA VA TASHKIOTLARNING MOLİYAVIY NATIJALARI</b>	<b>85-88</b>
<b>XI. KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI</b>	<b>89-95</b>
<b>XII. O'RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI</b>	<b>96-103</b>
<b>XIII. DEMOGRAFIK HOLAT</b>	<b>104-109</b>



### Qisqartma va shartli belgilar

YAHM	-	yalpi hududiy mahsulot	0,0	-	katta bo'lmagan miqdor
%.	-	foiz	m.	-	marta
mlrd.	-	milliard	-	-	ko'rsatkichning yo'qligi
mln.	-	million	ga.	-	Gektar
mln.AQSH doll.	-	million AQSH dollari	t.	-	Tonna
kv.	-	kvadrat	yo'lovchi/km	-	yo'lovchi-kilometr
km.	-	kilometr	Mbit/s	-	Megabit /soniya
m.	-	metr	1), 2), 3).....	-	izohning mavjudligi



**Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar**  
(2025-yil yanvar-iyun)

	<i>Mlrd so'm</i>	<i>2024- yil yanvar-iyuniga nisbatan % hisobida</i>
Yalpi hududiy mahsulot	14 997,1	106,3
Sanoat mahsuloti	12 108,6	105,6 *
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) lari	6 201,9	103,9
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	9 556,9	149,9
Qurilish ishlari	2 604,0	116,5
Yuk aylanmasi (mln t/km)	194,6	105,1
Yo'lovchi aylanmasi (mln. yo'lovchi/km)	1 354,0	103,6
Chakana savdo tovar aylanmasi	3 098,9	109,6
Xizmatlar, jami	6 350,9	114,1
Tashqi savdo aylanmasi, (mln. AQSh. doll)	396,3	129,7
Eksport	136,6	109,2
Import	259,7	143,9
Saldo (+,-)	-123.1	x

\* Fizik hajm indeksi (FHI)



## YALPI HUDUDIY MAHSULOT ISHLAB CHIQRISH

2025-yil yanvar-iyun


- I. Yalpi hududiy mahsulot dinamikasi
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi hududiy mahsulot
- III. Aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot
- IV. Kichik tadbirkorlik (biznes)ning YAHMdagi ulushi
- V. Yalpi hududiy mahsulot bo'yicha uslubiy tushuntirishlar

### I. Yalpi hududiy mahsulot dinamikasi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning yanvar-iyun oylarida Sirdaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda **14 997,1** mlrd. so'mni tashkil etdi va 2024- yilning yanvar-iyun oylari bilan taqqoslaganda **6,3 %** ga o'sdi.


O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Sirdaryo viloyatining qo'shgan hissasi **1,9 %** ga yetdi.

### YAHM hajmi va o'sish sur'atlari, yanvar-iyun



YAHM deflyator indeksi 2024-yilning yanvar-iyun oylaridagi narxlarga nisbatan **111,0 %** ni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoat tarmog'ida – **114,8 %** va xizmat tarmoqlarida – **109,1 %** qayd etildi.

**2025-yilning yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indekslari**




**II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi hududiy mahsulot**

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHMni ishlab chiqarish quyidagi ma'lumotlar bilan ifodalanadi:

	Hajmi, mlrd so'm		O'sish sur'atlari, % da
	2024-yil yanvar-iyun	2025-yil yanvar-iyun	
<b>YAHM - jami</b>	<b>12 708,8</b>	<b>14 997,1</b>	<b>106,3</b>
shu jumladan:			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	12 491,7	14 556,1	106,2
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	3 206,8	3 528,3	103,8
sanoat	4 032,4	4 890,2	105,6
qurilish	891,7	1 072,9	116,5
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 219,0	1 456,1	110,8
tashish va saqlash, axborot va aloqa	449,9	553,9	112,3
boshqa xizmat tarmoqlari	2 691,9	3 054,7	103,6
Mahsulotlarga sof soliqlar	217,1	441,0	108,2

2025- yilning yanvar-iyun oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **103,8 %**, sanoatda – **105,6 %**, qurilishda – **116,5 %**, xizmatlar sohasida – **106,5 %** ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda **110,8 %**, tashish va saqlash, axborot va aloqa **112,3 %**, boshqa xizmat tarmoqlarida **103,6 %** dan iborat bo'ldi.

YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibi, yanvar-iyun  
(%,da)




2025- yilning yanvar-iyun oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning **97,1 %** ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa **2,9 %** ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi **24,2 %** ni, sanoat tarmog'i **33,6 %** ni, qurilish **7,4 %** ni va xizmatlar sohasi **34,8 %** ni tashkil qildi.

### III. Aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot

Quyida keltirilgan diagrammadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM **16 045,7** ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan **4,4 %** ga yuqoridir.




### IV. Kichik tadbirkorlik (biznes)ning YAHMdagi ulushi

#### Yanvar-iyun oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan, %da)

2025-yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik **9 738,7** mlrd. so'mni tashkil etdi (2024- yilning yanvar-iyun oylarida – **7 798,2** mlrd. so'm). YAHMdagi ulushi **66,9 %** ni (2024- yilning yanvar-iyun oylarida – **62,4 %**) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi pasayishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bog'liq.





## V. Yalpi hududiy mahsulot bo'yicha uslubiy tushuntirishlar

Yalpi hududiy mahsulot (YAHM) – hududning rivojlanishini umumlashtiruvchi ko'rsatkich. YAHM iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, ya'ni u ushbu hududning rezidentlari bo'lgan iqtisodiy birliklar tomonidan yakuniy foydalanish uchun ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymatini ifodalaydi.

YAHMni hisoblashning ishlab chiqarish usuli MHTning ishlab chiqarish hisoblarini tuzish tamoyillariga asoslanadi va YAHMni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy narxlarda yalpi qo'shilgan qiymat va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali baholashni ko'zda tutadi.

YAHM va uning tarkibiy qismlarini hisoblashni uslubiy tamoyillari butun iqtisodiyot bo'yicha YAIMni hisoblash tamoyillari bilan bir xil. Lekin YAIMning ayrim elementlari hududlar kesimida shakllantirilmaydi yoki hududlar darajasida ma'lumotlarning yo'qligi va cheklanganligi, shuningdek, ularni hisobga olishni o'ziga xos xususiyatlari sababli hududlar bo'yicha taqsimlanmaydi. Shu sababdan, ular O'zbekiston Respublikasi bo'yicha taqsimlanmagan qism sifatida hisob-kitoblarga kiritiladi.

Aholi jon boshiga YAIM (YAHM) muayyan davrda joriy narxlardagi YAIM (YAHM) hajmini mamlakat (hudud)ning o'rtacha aholisi soniga bo'lish orqali aniqlanadi.

Aholi jon boshiga hisoblangan yalpi ichki (hududiy) mahsulotni baholash uchun ishlab chiqarish usulida hisoblangan yalpi ichki (hududiy) mahsulot hajmi, shuningdek, muayyan davrda mamlakat (hudud)ning o'rtacha aholisi soni bo'yicha demografiya va mehnat statistikasi ma'lumotlaridan foydalaniladi.

### Havolalar

[Yalpi hududiy mahsulotni hisoblash bo'yicha uslubiy nizom](#)

[Kuzatilmaydigan iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha uslubiy nizom](#)

[Yalpi hududiy mahsulot](#)

## Sirdaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishi


2025-yil yanvar-iyun oylari uchun

- I. Sirdaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni
- II. Sirdaryo viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

### I. Sirdaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni

2025-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, viloyatda 1 210 ta sanoat korxonalarini faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalarini soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ishlab chiqarish sanoatida taqsimlanganda yuqori ulush 307 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 25,4 %) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 213 tasi (17,6 %) boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 83 tasi (6,9 %) kiyim ishlab chiqarishga, 79 tasi (6,5 %) tikuvchilik mahsulotlari ishlab chiqarishga, 73 tasi (6,0 %) mebel mahsulotlari ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni  
1-iyul holatiga ko'ra





## II. Sirdaryo viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025-yilning yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalari tomonidan **12 108,6\*** mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi **105,6** % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>12 108,6</b>	<b>105,6</b>
Guliston sh.	763,8	103,7
Shirin sh.	3 026,7	68,7
Yangiyer sh.	759,1	115,3
Boyovut tumani	2 578,4	185,6
Guliston tumani	300,8	106,8
Mirzaobod tumani	208,7	106,5
Oqoltin tumani	285,7	105,1
Sardoba tumani	217,2	110,8
Sayxunobod tumani	428,7	103,2
Sirdaryo tumani	2 058,8	109,1
Xovos tumani	235,7	109,6

\* viloyat umumiy ko'rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda

### Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

### Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Shirin shahrida (**155 959,4** ming so'm), Sirdaryo tumanida (**14 730,7** ming so'm), Boyovut tumanida (**18 148,6** ming so'm), o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (**12 955,1** ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati (**103,8** %)ni tashkil etgan bo'lsa, Boyovut tumanida (**182,2** %), Yangiyer shahrida (**112,7** %), Sardoba tumanida (**109,2** %), Xovos tumanida (**107,8** %), Sirdaryo tumanida (**107,5** %) qayd etilib, viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.


**Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi**  
yanvar-iyun oylarida




**Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari**

2025-yilning yanvar-iyun oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib **6 935,6** mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (**57,3 %**)ni tashkil etgan holda Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda **53,5** mlrd so'm (**0,4 %**), Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda **5 058,4** mlrd so'm (**41,8 %**) hamda Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda **61,1** mlrd so'm (**0,5 %**) ni tashkil etdi.


**Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi, jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi**  
2025-yilning yanvar-iyun oylarida



fizik hajm indeksi, % da



jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi





### III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2025-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda **37,0** ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (2024-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **99,7** % ga ko‘paygan), **14,1** ming tonna kepak mahsulotlari (**85,8** % ga ko‘paygan), **349,0** ming litr **100** % spirt aroq mahsulotlari (**106,9** % ga ko‘paygan) hamda **1,7** ming tonna dori vositalari (**41,4** % ga ko‘paygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-iyun*	2024-yil yanvar-iyun*	2025-yil yanvar-iyun
Tarkibida alkaloidlar bo‘lgan yoki bo‘lmagan, lekin gormonlar yoki antibiotiklar bo‘lmagan medikamentlar, tonna	2 875,0	1 215,9	1 718,8
Boshqa plastmassalardan (etilen polimerlaridan tashqari) qoplar va sumkalar (jumladan konus shaklidagi), tonna	9 300,0	11 475,0	8 073,0
Yumshoq bug‘doy va spelta uni, ming tonna	18,6	16,0	37,0
Don ekinlarini qayta ishlashdan hosil bo‘lgan kepak, chiqit va boshqa chiqindilar, ming tonna	7,4	6,7	14,1
Boshqa o‘simlikdan yog‘ olishda hosil bo‘lgan kunjara va boshqa qattiq chiqindilar, tonna	4 144,3	17,3	2 937,7

\* 2023-2024-yillarning yanvar-iyun oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma‘lumotlar asosida shakllantirilgan

Mavzuga doir ko‘rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)

### Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – **35,1 %** (2024-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi **103,4 %**), to‘qimachilik, kiyim-kechak, teri va unga tegishli kimyoviy mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – **23,4 %** (2024-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi **97,7 %**), rezina va plastmassa mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – **9,7 %** ni tashkil etdi.

### Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi


O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi **5,8 %** ni (2024-yilning yanvar-iyun oylarida **5,4 %**), o‘rta-yuqori texnologiyali – **2,6 %** (**3,6 %**), o‘rta-quyi texnologiyali – **30,6 %** (**26,9 %**), quyi texnologiyali **61,0 %** (**64,1 %**) ni tashkil etgan.

### Sirdaryo viloyatida yirik korxonalar tomonidan qop mahsulotlari ishlab chiqarish yanvar-iyun oylarida


Qop mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatida 2025-yilning yanvar-iyun oylarida **2 325,0** tonna narsa joylanadigan qoplar va paketlar (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **1,2 %** ga kamaydi), **8 073,0** tonna boshqa plastmassalardan (etilen polimerlardan tashqari) qoplar va sumkalar (jumladan konus shaklidagi) (**29,6 %** ga kamaydi) ishlab chiqarildi.

### Sirdaryo viloyatida yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan qoplar, tonnada yanvar-iyun oylarida

Narsa joylanadigan qoplar va paketlar



Boshqa plastmassalardan (etilen polimerlardan tashqari) qoplar va sumkalar (jumladan konus shaklidagi)



**Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi**

2025-yilning yanvar-iyun oylarida o‘tgan yilning mos davriga nisbatan elektr energiyasini taqsimlash, uzatish hamda quvurlar orqali bug‘ va issiq suv bilan ta‘minlash bo‘yicha xizmatlar **88,7 %** ni, gazsimon yonilg‘ini quvurlar orqali taqsimlash bo‘yicha xizmatlar esa **83,4 %** ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-iyun*	2024-yil yanvar-iyun*	2025-yil yanvar-iyun
Jami ishlab chiqarilgan elektrenergija, mln. kv.t.s	8 490,0	7 017,1	10 647,4
<i>shundan:</i>			
<i>yirik korxonalar tomonidan (hisobot ma‘lumotlariga asosan)</i>	<i>8 490,0</i>	<i>7 017,1</i>	<i>4 131,4</i>
<i>kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan (kuzatuv ma‘lumotlariga asosan)</i>	<i>0,0</i>	<i>0,0</i>	<i>6 516,0</i>
Issiqlik energiyasi, ming gkal	58,2	74,3	71,0

### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlashda **13,0 %** ga kamayish, chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilitatsiya qilish **23,1 %** ga ko'payish kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-iyun*	2024-yil yanvar-iyun*	2025-yil yanvar-iyun
Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	21,7	47,2	44,8
Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilitatsiya qilish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	7,4	10,9	16,3

\*2023-2024-yillarning yanvar-iyun oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

#### IV. Kichik biznes subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **6 732,2** mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi **55,6 %** ni tashkil etdi (2024-yilning yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi **34,3 %** ni tashkil etgan).



## V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

**Sanoat bu** – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

### Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

**Sanoat ishlab chiqarishi hajmi** to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

### Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

**Fizik hajm indeksini hisoblash** deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

**Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi** asosiy 4 ta B, C, D, E seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

**B** - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

**C** - Ishlab chiqarish sanoati

**D** - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

**E** - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish


## Sirdaryo viloyatida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi 2025 yil yanvar-iyun oylari uchun

- I. Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi
- II. Sirdaryo viloyati qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida
- III. Qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini yetishtirish
- IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni
- V. Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi boʻyicha uslubiy tushuntirishlar va metamaʼlumotlar

### I. Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

Dastlabki maʼlumotlarga koʻra, 2025-yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi **6 201,9** mlrd soʻmni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar – **5 784,9** mlrd soʻmni, oʻrmon xoʻjaligi – **314,1** mlrd soʻmni, baliqchilik xoʻjaligi – **102,9** mlrd soʻmni tashkil qildi.

### Sirdaryo viloyatida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining oʻsish surʼati



### II. Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida

2025-yilning yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Boyovut (**1 042,9** mlrd soʻm), Sayxunobod (**847,7** mlrd soʻm), Sirdaryo (**732,0** mlrd soʻm), Sardoba (**719,7** mlrd soʻm), Guliston (**718,3** mlrd soʻm) va Oqoltin (**669,0** mlrd soʻm) tumanlarida qayd etildi.



Aksincha kam hajmga ega hududlarga Shirin (13,5 mlrd so‘m), Yangiyer (27,0 mlrd so‘m) va Guliston shaharlarini (179,5 mlrd so‘m) keltirib o‘tish mumkin.

	Hajm mlrd so‘m	O‘sinh sur‘ati % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>6 201,9</b>	<b>103,9</b>
Guliston sh.	179,5	108,7
Shirin sh.	13,5	107,2
Yangiyer sh.	27,0	111,2
<i>tumanlar:</i>		
Oqoltin	669,0	102,0
Boyovut	1 042,9	104,6
Sayxunobod	847,7	104,1
Guliston	718,3	102,8
Sardoba	719,7	104,0
Mirzaobod	657,6	104,1
Sirdaryo	732,0	104,0
Xovos	594,7	103,4

Hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sinh sur‘ati tahlil qilinganda, yuqori o‘sinh sur‘atlari Yangiyer (111,2 %), Guliston (108,7 %), Shirin shaharlari (107,2 %) va Boyovut (104,6 %) tumanida qayd etildi.

Boshqa hududlarga nisbatan Oqoltin (102,0 %), Guliston (102,8 %) va Xovos (103,4 %), tumanlarida esa aksincha o‘sinh sur‘atlari pastligi kuzatildi.

### III. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish


2025-yilning yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 5 655,9 mlrd so‘mni yoki 2024-yilning mos davriga nisbatan 103,8 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 2 181,5 mlrd so‘mni (105,3 %), chorvachilik mahsulotlari 3 474,4 mlrd so‘mni (102,8 %) tashkil qildi.

Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Boyovut (**983,2** mlrd so'm), Sayxunobod (**781,4** mlrd so'm), Sardoba (**677,1** mlrd so'm) va Sirdaryo (**665,8** mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Shirin (**11,2** mlrd so'm), Yangiyer (**23,8** mlrd so'm) va Guliston shaharlarini (**157,7** mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Yangiyer (**110,1** %), Guliston (**107,8** %), Shirin shaharlari (**107,3** %) va Sirdaryo (**105,0** %) tumanlarida qayd etildi. Oqoltin (**101,9** %), Guliston (**102,5** %) va Xovos (**103,3** %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

### Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining **64,2** % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **26,9** % fermer xo'jaliklariga, **8,9** % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

### Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Boyovut (**539,6** mlrd so'm), Sayxunobod (**481,4** mlrd so'm), Guliston (**445,8** mlrd so'm), Mirzaobod (**412,7** mlrd so'm) va Sardoba (**409,3** mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Shirin (**8,3** mlrd so'm), Yangiyer (**19,6** mlrd so'm) va Guliston shaharlarini (**129,2** mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Guliston shahri (**109,7** %), Sirdaryo tumani (**105,1** %), Shirin shahri (**103,7** %) va Sayxunobod (**103,5** %) tumanida qayd etildi. Yangiyer shahri (**99,5** %), Guliston (**100,7** %), Oqoltin (**101,3** %) va Mirzaobod (**102,0** %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2025-yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda **37 825,0** tonna go'sht, **188 935,0** tonna sut, **92 629,0** ming dona tuxum, **354,0** tonna qirqib olingan jun yetishtirildi va **4 597,3** tonna baliq ovlandi.

Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **104,4** % ni, sog'ib olingan sut – **102,2** % ni, olingan tuxum – **107,2** % ni, qirqib olingan jun – **104,1** % ni hamda ovlangan baliqlar – **108,7** % ni tashkil qildi.

2025-yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go'shtning umumiy hajmidan **5,0** % fermer xo'jaliklari hissasiga, **86,2** % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **8,8** % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.



Shunga mos ravishda sogʻib olingan sutning **8,9 %** fermer xoʻjaliklari, **85,8 %** dehqon va tomorqa xoʻjaliklari, **5,3 %** qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga toʻgʻri keldi.

**2025 yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi  
chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar**

	Yanvar-iyun 2025 y.	Oʻsish surʼati % da
<b>Goʻsht (tirik vaznda), tonna</b>	<b>37 825,0</b>	<b>104,4</b>
shu jumladan:		
fermer xoʻjaliklari	1 891,0	114,3
dehqon va tomorqa xoʻjaliklari	32 591,0	100,9
qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	3 343,0	145,1
<b>Sut, tonna</b>	<b>188 935,0</b>	<b>102,2</b>
shu jumladan:		
fermer xoʻjaliklari	16 870,0	112,9
dehqon va tomorqa xoʻjaliklari	162 103,0	100,8
qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	9 962,0	109,6
<b>Tuxum, ming. dona</b>	<b>92 629,0</b>	<b>107,2</b>
shu jumladan:		
fermer xoʻjaliklari	8 080,0	103,8
dehqon va tomorqa xoʻjaliklari	60 510,0	100,4
qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	24 039,0	131,3
<b>Jun, tonna</b>	<b>354,0</b>	<b>104,1</b>
shu jumladan:		
fermer xoʻjaliklari	73,0	104,3
dehqon va tomorqa xoʻjaliklari	258,0	102,4
qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	23,0	127,8
<b>Baliq, tonna</b>	<b>4 597,3</b>	<b>108,7</b>
shu jumladan:		
fermer xoʻjaliklari	2 518,4	104,3
dehqon va tomorqa xoʻjaliklari	82,5	104,3
qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1 996,4	114,9

Shu bilan birga, olingan tuxumning **8,7 %** fermer xoʻjaliklariga, **65,3 %** dehqon va tomorqa xoʻjaliklariga, **26,0 %** qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga toʻgʻri keldi.



Shuningdek, qirqib olingan juning **20,6 %** fermer xo‘jaliklari, **72,9 %** dehqon va tomorqa xo‘jaliklari, **6,5 %** qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri keldi.

O‘z navbatida, ovlangan baliqlarning **54,8 %** fermer xo‘jaliklariga, **1,8 %** dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, **43,4 %** qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelganligini qayd etish lozim.

### Hududlar kesimida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari hajmi

	Go‘sh (tirik vaznda), tonna	Sut, tonna	Tuxum, ming dona
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>37 825,0</b>	<b>188 935,0</b>	<b>92 629,0</b>
Guliston sh.	2 105,8	4 621,5	14 971,3
Shirin sh.	96,3	327,7	485,8
Yangiyer sh.	244,0	680,8	567,9
<i>tumanlar:</i>			
Oqoltin	4 370,3	12 329,0	5 347,6
Boyovut	5 339,4	34 743,5	6 794,8
Sayxunobod	4 807,0	31 067,5	8 493,2
Guliston	5 026,8	21 753,3	8 432,6
Sardoba	4 913,9	14 961,3	18 616,5
Mirzaobod	3 999,5	27 420,2	13 051,7
Sirdaryo	4 217,5	24 486,0	8 887,8
Xovos	2 704,5	16 544,2	6 979,8

### Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish

Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Boyovut (**443,5** mlrd so‘m), Sayxunobod (**300,0** mlrd so‘m), Xovos (**270,0** mlrd so‘m), Sardoba (**267,8** mlrd so‘m) va Oqoltin (**262,1** mlrd so‘m) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Shirin (**2,9** mlrd so‘m), Yangiyer (**4,1** mlrd so‘m) va Guliston shaharlarini (**28,6** mlrd so‘m) keltirib o‘tish mumkin.



Yuqori oʻsish surʼatlari Yangiyer (**182,8** %), Shirin shaharlari (**118,1** %), Mirzaobod (**110,1** %), Sardoba (**106,3** %) va Boyovut (**105,9** %) tumanlarida qayd etildi. Guliston shahri (**100,5** %), Oqoltin (**102,7** %), Xovos (**103,9** %) va Sayxunobod (**104,8** %) tumanlarida esa aksincha oʻsish surʼatlari pastligi kuzatildi.

#### Hududlar kesimida yetishtirilgan jami don hajmi

	tonna	oʻsish surʼati, % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>394 230,0</b>	<b>105,2</b>
Guliston shahar	299,9	83,2
Shirin shahar	72,1	123,2
Yangiyer shahar	321,5	2,1 m.
<i>tumanlar:</i>		
Oqoltin	63 654,3	102,8
Boyovut	81 915,6	105,8
Sayxunobod	50 216,4	105,9
Guliston	35 198,4	107,9
Sardoba	50 986,2	102,5
Mirzaobod	19 072,5	112,6
Sirdaryo	47 090,9	104,6
Xovos	45 402,2	105,3

Yetishtirilgan jami donning umumiy hajmini eng yuqori ulushi Boyovut (**20,8** %) hissasiga toʻgʻri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Oqoltin (**16,1** %), Sardoba (**12,9** %), Sayxunobod (**12,7** %), Sirdaryo (**11,9** %) va Xovos tumanlarida (**11,9** %) qayd etildi. Past koʻrsatkichlar Shirin (**0,02** %), Guliston (**0,1** %) va Yangiyer shaharlarida (**0,1** %) kuzatildi.

2024-yilning mos davriga nisbatan yuqori oʻsish surʼatlari Yangiyer (**2,1** m.), Shirin shaharlari (**123,2** %), Mirzaobod (**112,6** %), Guliston (**107,9** %), Sayxunobod (**105,9** %), Boyovut (**105,8** %), Xovos (**105,3** %) va Sirdaryo tumanlarida (**104,6** %) qayd etildi.



### Hududlar kesimida yetishtirilgan kartoshka hajmi

	tonna	o‘shish sur‘ati, % da
Sirdaryo viloyati	31 427,0	104,9
Guliston shahar	673,0	100,7
Shirin shahar	209,0	106,1
Yangiyer shahar	95,0	103,1
tumanlar:		
Oqoltin	301,2	120,6
Boyovut	7 286,1	105,4
Sayxunobod	7 035,0	101,3
Guliston	3 329,4	106,2
Sardoba	1 626,4	117,3
Mirzaobod	2 703,1	107,5
Sirdaryo	4 594,6	102,3
Xovos	3 574,2	105,8

Yetishtirilgan kartoshkaning umumiy hajmini eng yuqori ulushi Boyovut (**23,2 %**) hissasiga to‘g‘ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Sayxunobod (**22,4 %**), Sirdaryo (**14,6 %**), Xovos (**11,4 %**), Guliston (**10,6 %**) va Mirzaobod tumanlarida (**8,6 %**) qayd etildi. Past ko‘rsatkichlar Yangiyer (**0,3 %**), Shirin shaharlari (**0,7 %**) va Oqoltin tumanida (**1,0 %**) kuzatildi.

2024-yilning mos davriga nisbatan yuqori o‘shish sur‘atlari Oqoltin (**120,6 %**), Sardoba (**117,3 %**), Mirzaobod (**107,5 %**), Guliston tumanlari (**106,2 %**), Shirin shahri (**106,1 %**), Xovos (**105,8 %**), Boyovut tumanlarida (**105,4 %**) qayd etildi.



### Hududlar kesimida yetishtirilgan sabzavotlar hajmi

	tonna	o‘shish sur‘ati, % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>85 467,0</b>	<b>103,2</b>
Guliston shahar	4 239,5	100,3
Shirin shahar	281	124,5
Yangiyer shahar	266,2	2,5 m.
<i>tumanlar:</i>		
Oqoltin	6 941,2	102,2
Boyovut	13 616,7	103,7
Sayxunobod	12 767,7	106,5
Guliston	9 388,3	103,3
Sardoba	10 231,1	103,0
Mirzaobod	6 049,9	102,9
Sirdaryo	11 415,5	100,9
Xovos	10 269,9	101,6

Yetishtirilgan sabzavotning umumiy hajmini eng yuqori ulushi Boyovut (15,9 %) hissasiga to‘g‘ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Sayxunobod (14,9%), Sirdaryo (13,4%), Xovos (12,0%), Sardoba (12,0%) va Guliston tumanlarida (11,0%) qayd etildi. Past ko‘rsatkichlar Yangiyer (0,3%), Shirin (0,3%) va Guliston shaharlarida (5,0%) kuzatildi.

2024-yilning mos davriga nisbatan yuqori o‘shish sur‘atlari Yangiyer (2,5 m.), Shirin shaharlari (124,5%), Sayxunobod (106,5%), Boyovut (103,7%), Guliston (103,3%), Sardoba (103,0%), Mirzaobod (102,9%) va Oqoltin tumanlarida (102,2%) qayd etildi.

### Hududlar kesimida yetishtirilgan jami poliz hajmi

	tonna	o‘shish sur‘ati, % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>16 348,0</b>	<b>119,6</b>
Guliston shahar	148,2	103,1
Shirin shahar	0,6	120,0
Yangiyer shahar	0,0	0,0
tumanlar:		
Oqoltin	422,5	133,1
Boyovut	1 458,3	155,1
Sayxunobod	2 178,4	100,2
Guliston	1 378,6	114,1
Sardoba	5 684,4	142,4
Mirzaobod	1 948,4	107,7
Sirdaryo	501,0	102,0
Xovos	2 627,6	101,3

Yetishtirilgan polizning umumiy hajmini eng yuqori ulushi Sardoba (**34,8 %**) hissasiga to‘g‘ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Xovos (**16,1 %**), Sayxunobod (**13,3 %**), Mirzaobod (**11,9 %**), Boyovut (**8,9 %**) va Guliston tumanlarida (**8,4 %**) qayd etildi. Past ko‘rsatkichlar Shirin (0,004 %), Guliston shaharlari (**0,9 %**) va Oqoltin tumanida (**2,6 %**) kuzatildi.

2024-yilning mos davriga nisbatan yuqori o‘shish sur‘atlari Boyovut (**155,1 %**), Sardoba (**142,4 %**), Oqoltin tumanlari (**133,1 %**), Shirin shahri (120,0 %), Guliston (**114,1 %**), Mirzaobod tumanlari (**107,7 %**) va Guliston shahrida (**103,1 %**) qayd etildi.

### Hududlar kesimida yetishtirilgan mevalar va rezavorlar hajmi

	tonna	o‘shish sur‘ati, % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>13 443,0</b>	<b>111,4</b>
Guliston shahar	110,7	106,5
Shirin shahar	10,1	121,7
Yangiyer shahar	114,8	153,3
tumanlar:		
Oqoltin	491,2	104,5
Boyovut	3 872,4	113,6
Sayxunobod	1 287,4	103,9
Guliston	1 277,2	107,0
Sardoba	1 179,2	124,9
Mirzaobod	1 213,5	124,8
Sirdaryo	958,8	107,8
Xovos	2 927,7	106,2

Yetishtirilgan mevalar va rezavorlarning umumiy hajmini eng yuqori ulushi Boyovut (**28,8 %**) hissasiga to‘g‘ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Xovos (**21,8 %**), Sayxunobod (**9,6 %**), Guliston (**9,5 %**), Mirzaobod (**9,0 %**) va Sardoba tumanlarida (**8,8 %**) qayd etildi. Past ko‘rsatkichlar Shirin (**0,1 %**), Guliston (**0,8 %**) va Yangiyer shaharlarida (**0,9 %**) kuzatildi.

2024-yilning mos davriga nisbatan yuqori o‘shish sur‘atlari Yangiyer shahri (**153,3 %**), Sardoba (**124,9 %**), Mirzaobod tumanlari (**124,8 %**), Shirin shahri (**121,7 %**), Boyovut (**113,6 %**), Sirdaryo (**107,8 %**) va Guliston tumanlarida (**107,0 %**) qayd etildi.

### Hududlar kesimida yetishtirilgan jami uzum hajmi

	tonna	o‘shish sur‘ati, % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>856,0</b>	<b>106,7</b>
Guliston shahar	0,0	0,0
Shirin shahar	0,0	0,0
Yangiyer shahar	0,0	0,0
tumanlar:		
Oqoltin	0,0	0,0
Boyovut	215,5	114,4
Sayxunobod	19,3	104,9
Guliston	207,9	102,5
Sardoba	28,5	147,7
Mirzaobod	116,9	101,8
Sirdaryo	81,2	101,8
Xovos	186,7	104,6

Yetishtirilgan uzumning umumiy hajmini eng yuqori ulushi Boyovut (**25,2 %**) hissasiga to‘g‘ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Guliston (**24,3 %**), Xovos (**21,8 %**), Mirzaobod (**13,7 %**) va Sirdaryo tumanlarida (**9,5 %**) qayd etildi. Past ko‘rsatkichlar Sayxunobod (**2,3 %**) va Sardoba tumanlarida (**3,3 %**) kuzatildi.

2024-yilning mos davriga nisbatan yuqori o‘shish sur‘atlari Sardoba (**147,7 %**), Boyovut (**114,4 %**), Sayxunobod (**104,9 %**), Xovos (**104,6 %**) Guliston tumanlarida (**102,5 %**) qayd etildi.

#### IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2025-yilning 1-iyul holatiga barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni **479 314** boshga yetdi, (2024-yilning 1-iyul holatiga nisbatan **2,3 %** ga ko‘p), sigirlar **183 926** boshga (**3,1 %** ga ko‘p), qo‘y va echkilar **393 742** boshga (**3,5 %** ga ko‘p), parrandalar **5 151 305** boshga (**12,9 %** ga ko‘p) yetdi.



2025 yilning 1 iyul holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha  
chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Bosh	O'sish sur'ati
<b>Yirik shoxli qoramollar</b>	<b>479 314</b>	<b>102,3</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	45 713,0	103,2
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	407 414,0	101,0
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	26 187,0	126,5
<b>shundan sigirlar</b>	<b>183 926,0</b>	<b>103,1</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	20 602,0	107,7
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	152 981,0	100,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	10 343,0	141,3
<b>Qo'y va echkilar</b>	<b>393 742,0</b>	<b>103,5</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	69 444,0	107,2
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	297 016,0	101,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	27 282,0	122,4
<b>Otlar</b>	<b>16 792,0</b>	<b>102,8</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	4 891,0	106,9
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	10 766,0	100,1
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1 135,0	113,2
<b>Parrandalar</b>	<b>5 151 305,0</b>	<b>112,9</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	352 215,0	107,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 478 030,0	100,5
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	3 321 060,0	120,2

2025-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning **9,5 %** fermer xo'jaliklari hissasiga, **85,0 %** dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **5,5 %** qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.



Shunga mos ravishda sigirlarning umumiy sonidan **11,2 %** fermer xo'jaliklariga, **83,2 %** dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **5,6 %** qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi. Shuningdek, qo'y va echkilarning umumiy sonidan **17,6 %** fermer xo'jaliklariga, **75,4 %** dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **7,0 %** qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi. Parrandalar umumiy sonidan **6,8 %** fermer xo'jaliklariga, **28,7 %** dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **64,5 %** qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

**2025 yilning 1 iyul holatiga hududlar kesimida  
chorva mollari va parrandalar bosh soni**

	Yirik shoxli qoramollar, <i>bosh</i>	Qo'y va echkilar, <i>bosh</i>	Parrandalar, <i>bosh</i>
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>479 314</b>	<b>393 742</b>	<b>5 151 305</b>
Guliston sh.	16 207	13 140	1 811 289
Shirin sh.	4 381	5 084	17 492
Yangiyer sh.	5 996	10 530	121 170
<i>tumanlar:</i>			
Oqoltin	42 395	32 563	333 303
Boyovut	78 205	76 643	282 820
Sayxunobod	77 057	45 736	248 190
Guliston	53 855	32 657	225 444
Sardoba	42 577	38 991	628 754
Mirzaobod	52 886	45 605	719 346
Sirdaryo	57 417	34 035	508 010
Xovos	48 338	58 758	255 487

## V. Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi boʻyicha uslubiy tushuntirishlar va metamaʼlumotlar

**Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarish hajmi** – sohada oʻz isteʼmoli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xoʻjaligida, oʻrmonchilik va yogʻoch tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.

**Qishloq xoʻjaligi mahsulotlari** – hisobot davrida fermer xoʻjaliklarida, dehqon va tomorqa xoʻjaliklarida hamda qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xoʻjaligida mahsulot yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

**Fermer xoʻjaligi** – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xoʻjaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shugʻullanuvchi tadbirkorlik subʼektidir.

**Dehqon xoʻjaligi** – meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xoʻjaligi boshligʻiga berilgan yer uchastkasida qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini yetishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xoʻjaligi aʼzolarining mehnati asosida amalga oshiruvchi xoʻjalikdir.

**Tomorqa xoʻjaligi** – shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun yetishtirish (qayta ishlash) bilan bogʻliq mehnat faoliyatidir.

**Qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar** – qishloq xoʻjaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xoʻjalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xoʻjalik yurituvchi subʼekt hisoblanadi.

**Mollar bosh soni** – xoʻjalik toifalari boʻyicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini oʻz ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qoʻy va echkilar, choʻchqalar va h.k.)

**Goʻsht yetishtirish** – soʻyish uchun sotilgan hamda oʻz xoʻjaligida soʻyilgan barcha turdagi qishloq xoʻjaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini oʻz ichiga oladi.

**Sut yetishtirish** – yosh mollarga ichirish uchun sogʻib olingan sut va ogʻiz sutini qoʻshgan holda, haqiqatda sogʻib olingan sigir, echki, qoʻy, biya va tuya sutlari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi sogʻib olishga kiritilmaydi.

**Tuxum yetishtirish** – barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorlarda joʻja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini oʻz ichiga oladi.

**Metamaʼlumot uchun havola:**

<https://lib.stat.uz/uz/features/qishloq-xo-jaligi-va-ekologiya/685-qishloq-o-rmon-va-baliqchilik-xo-jaligi-mahsulot-xizmat-lari-yalpi-ishlab-chiqarishini-hisoblash-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

## Sirdaryo viloyatida asosiy kapitalga investitsiyalar


2025-yil yanvar-iyun oylari uchun

- I. Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar
- III. Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar
- IV. Ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish
- V. Asosiy kapitalga investitsiyalar bo'yicha uslubiy tushuntirishlar

### I. Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar

So'nggi besh yildagi asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi dinamikasi shuni ko'rsatmoqdaki, u deyarli **2,5** barobarga ko'paydi, ayniqsa joriy davrda o'tgan yilga nisbatan **3 448,0** mlrd so'mga ko'p investitsiyalar o'zlashtirildi.

#### Asosiy kapitalga investitsiyalar dinamikasi



So'nggi besh yil ichida o'sish sur'atlarini ko'radigan bo'lsak, ular o'sib borish tendensiyasiga ega bo'lib, joriy davrda eng yuqori o'sish sur'ati – **149,9** % kuzatilgan bo'lsa, 2024-yilda eng past o'sish sur'ati **79,5** % ni tashkil qildi.

Iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirishga 2025-yil yanvar-iyun oylarida barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan **9 556,9** mlrd so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi va bu ko'rsatkich 2024-yilning mos davriga nisbatan **149,9** % ni tashkil etdi.




**Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar**  
*Yanvar-iyun oylarida*

	Hajmi, mlrd so'm	o'sish sur'ati %da	umumiy hajmga nisbatan, %da	
			2024-y.	2025-y.
<b>Jami</b>	<b>9 556,9</b>	<b>149,9</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>markazlashgan investitsiyalar:</b>	<b>732,7</b>	<b>174,6</b>	<b>6,6</b>	<b>7,7</b>
respublika budjeti	250,0	80,6	4,9	2,6
Moliya vazirligi huzuridagi suv bilan ta'minlash va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	114,1	160,0	1,1	1,2
tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari	43,6	-	-	0,5
shu jumladan, mln.AQSh dollarida	3,4	-	x	x
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar	325,0	856,4	0,6	3,4
shu jumladan, mln.AQSh dollarida	25,1	866,6	x	x
<b>markazlashmagan investitsiyalar:</b>	<b>8 824,2</b>	<b>148,2</b>	<b>93,4</b>	<b>92,3</b>
korxonalar mablag'lari	918,4	131,2	11,0	9,6
aholi mablag'lari	175,2	110,3	2,4	1,8
to'g'ridan-to'g'ri, boshqa va kafolatlanmagan xorijiy kreditlar	7 359,2	153,1	75,4	77,0
shu jumladan, mln.AQSh dollarida	571,0	155,7	x	x
<i>shundan:</i>				
<i>to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar</i>	<i>5 641,7</i>	<i>174,8</i>	<i>50,6</i>	<i>59,0</i>
<i>shu jumladan, mln.AQSh dollarida</i>	<i>437,8</i>	<i>177,8</i>	<i>x</i>	<i>x</i>
tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	371,4	127,5	4,6	3,9

2025-yil yanvar-iyun oylarida markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi **732,7** mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan **174,6** % ni tashkil etdi. Ularning jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmidagi ulushi esa **7,7** % ga yetdi.

### Yillar bo'yicha markazlashgan va markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi



2025-yil yanvar-iyun oylarida markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi **8 824,2** mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan **148,2** % ni tashkil etdi. Ularning jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmidagi ulushi esa **92,3** % ga yetdi.

Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari ichida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar ulushi yuqori bo'lib, jami investitsiyalar hajmidagi ulushi **77,0** foizni yoki **7 359,2** mlrd so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, korxonalar va aholi mablag'lari hisobidan **1 093,6** mlrd so'm asosiy kapitalga o'zlashtirilib jami investitsiyalar hajmidagi ulushi **13,5** foizni tashkil etdi.

**Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalarning  
moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi**

	Jami investitsiyalar, mlrd so'm	shu jumladan, moliyalashtirish manbalari bo'yicha: (jamiga nisbatan % da)						
		Respublika budjeti	Korxonalar va tashkilot	Aholi	Xorijiy investitsiya va kredit	Suv bilan ta'minlash va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>9 556,9</b>	<b>2,6</b>	<b>9,6</b>	<b>1,8</b>	<b>80,4</b>	<b>1,2</b>	<b>0,5</b>	<b>3,9</b>
shaharlar								
Guliston	773,0	8,7	26,5	4,7	49,2	5,9	1,9	3,1
Shirin	2 796,9	-	1,2	0,1	98,7	0,0	0,0	0,0
Yangiyer	1 367,2	1,8	3,5	0,5	89,6	0,9	0,1	3,6
tumanlar								
Boyovut	540,4	4,6	9,7	2,8	76,8	2,5	1,0	2,6
Guliston	283,9	4,6	54,4	3,6	32,5	0,0	1,9	3,0
Mirzaobod	519,8	4,0	9,6	1,8	77,7	1,1	1,0	4,8
Oqoltin	502,2	0,7	6,1	0,9	80,6	0,0	0,0	11,7
Sardoba	648,4	1,9	12,4	1,6	77,0	0,0	0,0	7,1
Sayxunobod	840,8	2,5	3,7	1,1	90,0	0,1	0,6	2,0
Sirdaryo	759,1	3,6	27,7	7,6	46,2	0,2	0,0	14,7
Xovos	525,2	6,6	4,7	2,5	75,1	6,8	1,1	3,2

**II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar**

Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida ishlab chiqarish sanoati yetakchilik qilmoqda. Amalga oshirilayotgan yirik investitsiya loyihalari natijasida ushbu iqtisodiy faoliyat turida jami moliyalashtirish manbalari hisobidan **3 393,6** mlrd so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning **35,5 %** o'zlashtirildi.



### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar

	Hajmi, mlrd so'm	umumiy hajmga nisbatan, %da	
		2024- y.	2025- y.
<b>Asosiy kapitalga investitsiyalar – jami</b>	<b>9 556,9</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1 253,6	8,7	13,1
tog'-kon sanoati	22,1	1,9	0,2
ishlab chiqarish sanoati	3 393,6	29,6	35,5
elektr energiyasi, gaz, bug' va kondensiyalangan havo	2 776,5	41,8	29,0
suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish	224,9	1,5	2,3
Qurilish	168,7	2,4	1,8
ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash	202,8	5,3	2,1
tashish va saqlash	209,3	1,1	2,2
boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish	40,7	0,3	0,4
Davlat boshqaruvi va mudofaa	25,4	0,6	0,3
moliya va sug'urta faoliyati	34,8	0,4	0,4
kasbiy, ilmiy va texnik faoliyat	20,2	0,1	0,2
ta'lim	149,1	1,0	1,6
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	115,2	1,2	1,2
san'at, ko'ngil ochish va dam olish	8,5	0,3	0,1
turar-joy qurilishiga investitsiyalar	896,3	3,2	9,4
boshqa faoliyat turlari	15,2	0,6	0,2


### III. Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

2025-yil yanvar-iyun oylarida jami xorijiy investitsiya va kreditlar **596,1** mln dollar yoki **7 684,1** mlrd soʻmni tashkil etdi.

#### Hududlar kesimida xorijiy investitsiya va kreditlar, mlrd soʻm

	Toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalar	Oʻz.Res. kafolati ostidagi xorijiy kreditlar	Boshqa xorijiy investitsiya va kafolatlanmagan kreditlar
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>5 641,7</b>	<b>325,0</b>	<b>1 717,4</b>
shaharlar			
Guliston	45,5	4,6	330,3
Shirin	2 761,1	-	-
Yangiyer	1 000,4	21,5	203,0
tumanlar			
Boyovut	252,6	162,8	-
Guliston	2,6	21,4	68,4
Mirzaobod	365,4	-	38,7
Oqoltin	140,6	-	264,3
Sardoba	241,0	-	258,4
Sayxunobod	335,3	21,4	399,9
Sirdaryo	240,6	21,5	88,9
Xovos	256,6	71,8	65,5

#### Iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar



#### IV. Ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish

2025-yil yanvar-iyun oylarida jami **60,0** ming kv.m turar-joylar ishga tushirilib, 2024-yilning mos davriga nisbatan **100,5** % ni tashkil etdi.

#### Hududlar kesimida ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish

	Turar-joylar, ming kv.m	Ulardan: qishloq joylarda ming kv.m	Suv tarmogʻi, km	Gaz tarmogʻi, km
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>60,0</b>	<b>38,0</b>	-	-
shaharlar				
Guliston	18,4			
Shirin	0,5		-	-
Yangiyer	3,1		-	-
tumanlar				
Boyovut	2,2	2,2	-	-
Guliston	1,6	1,6	-	-
Mirzaobod	1,1	1,1	-	-
Oqoltin	0,0	0,0	-	-
Sardoba	2,2	2,2	-	-
Sayxunobod	0,9	0,9	-	-
Sirdaryo	27,9	27,9	-	-
Xovos	2,1	2,1	-	-

## V. Asosiy kapitalga investitsiyalar bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

**Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarga** barcha turdagi qurilish ishlariga qilingan xarajatlar; asbob-uskunalarni montaj qilish bo'yicha xarajatlar; mashina, asbob-uskunalar (montaj talab etiladigan va talab etilmaydigan), transport vositalari, jihoz va xo'jalik inventarini sotib olish; boshqa kapital ishlar va xarajatlar kiradi. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar, ilgari boshqa tashkilotlarning asosiy fondlarida hisobga olingan asbob-uskunalar, binolar va inshootlar (yoki ularning ehtiyot qismlari)ni sotib olishga qilingan xarajatlarsiz keltirilgan.

**Chet el investitsiyalari** – asosan kelgusida foyda olish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi hududidagi korxonalar va tashkilotlarga kiritilgan chet el kapitali.

**To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bu** – korxonaga to'liq egalik qiluvchi yoki korxonalar aksionerlik kapitalining 10 % dan kam bo'lmagan qismini nazorat qiluvchi, ya'ni korxonani boshqarishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investor yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan kiritilgan investitsiyalar.

Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar yangi va import orqali xarid qilingan asosiy vositalarni o'z ichiga oladi. Bularga: ularning boshlang'ich qiymatini oshirishga olib keladigan yangi qurilish, kengaytirish, obyektlarni rekonstruksiya va modernizatsiya qilish uchun ketgan xarajatlar, mashinalar, asbob-uskunalar, transport vositalari, yer holatini yaxshilash uchun xarajatlar, geologik qidiruv ishlariga, asosiy podani shakllantirishga va ko'p yillik o'simliklarni o'tkazishga ketgan xarajatlar kiradi.

Mazkur ko'rsatkichga shuningdek moliyalashtirishining barcha manbalari hisobidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hamda texnik va hayriya yordam, "MEN" shartnomalari, ta'sischilarning yangi asosiy vosita sifatidagi badallari, shuningdek intellektual mulkchilik obyektlariga va intellektual faoliyat mahsulotlariga investitsiyalar kiritiladi.

## Sirdaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2025-yil yanvar-iyun oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari
- III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- VI. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- V. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar

### I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2025- yilning yanvar-iyun oylarida, Sirdaryo viloyatida jami **2 604,0** mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan **116,5 %** ni tashkil etdi.

#### Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



2025-yilning yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar kesimida, xususan, Mirzaobod tumani (**603,8** mlrd so'm), Guliston shahri (**486,9** mlrd so'm) va Yangiyer shahrida (**230,7** mlrd so'm) qurilish ishlarining yuqori hajmi qayd etildi.

### Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati

	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
<b>Sirdaryo viloyati *</b>	<b>2 604,0</b>	<b>116,5</b>
Guliston sh.	486,9	103,6
Shirin sh.	142,3	120,8
Yangiyer sh.	230,7	113,3
Boyovut	46,5	101,5
Guliston	62,8	112,8
Mirzaobod	603,8	145,6
Oqoltin	45,2	108,5
Sardoba	139,6	114,8
Sayxunobod	62,3	113,0
Sirdaryo	185,1	110,0
Xovos	58,4	109,0

\* Viloyat umumiy ko'rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda.

#### Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

#### II. Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta jihozlash ishlari

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **67,0%** i yoki **1 743,7** mlrd so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan. Jumladan:

Yirik qurilish tashkilotlari – **447,5** mlrd so'm, *jamiga nisbatan ulushi* – **25,7%**;

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – **1 047,8** mlrd so'm *hamda ulushi* – **60,1%**;

Norasmiy sektor – **248,4** mlrd so'm *hamda ulushi* – **14,2%**.

#### III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari


2025-yilning yanvar-iyun oylarida Sirdaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yoʻnalishi **60,8 %** ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan **115,8 %** ni tashkil etdi;

- fuqarolik obyektlarini qurish yoʻnalishi **34,9 %** ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan **116,6 %** ni tashkil etdi;

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yoʻnalishi **4,3 %** ulushni va 2024-yilning mos davriga nisbatan **127,0 %** ni tashkil etdi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha qurilish ishlari oʻsish surʼati va hajmi



### Bino va inshootlar qurilishining asosiy koʻrsatkichlari


Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015-yilning 1-yanvaridan boshlab, “Oʻzbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha mahsulot (mahsulot, ish, xizmat)lar statistik tasniflagichi (MST)”ga muvofiq “Qurilish faoliyati boʻyicha oʻz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi” koʻrsatkichi qoʻllaniladi.

Bino va inshootlarni qurish boʻyicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **13,0 %** ni tashkil etib, 2024-yilning mos davridagi koʻrsatkichga nisbatan **3,5 %** ga koʻpaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga toʻgʻri kelgan ulush 2024-yilning mos davriga nisbatan **1,8 %** ga kamayib **61,8 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2024-yilning mos davriga nisbatan **1,7 %** ga kamayib, **25,2 %** ni tashkil etdi.


### Bino va inshootlar qurilishining hajmi va o'sish sur'ati



### Fuqarolik obyektlari qurilishining asosiy ko'rsatkichlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **25,6 %** ni tashkil etdi va 2024-yilning mos davriga nisbatan **0,5 %** ga ko'paydi. Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2024-yilning mos davriga nisbatan **0,5 %** ga kamayib **74,4 %** ni tashkil etdi.

### Fuqarolik obyektlari qurilishining hajmi va o'sish sur'ati




### Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2024-yilning mos davriga nisbatan **8,3 %** ga kamaydi va **4,4 %** ni tashkil etdi.

Qolgan **95,6 %**i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2024-yilning mos davriga nisbatan **8,3 %** ga ko'paydi.

#### Korxonalar turlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati



#### IV. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025-yilning yanvar-iyun oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi **447,5** mlrd soʻmni tashkil etdi. Koʻrib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan **135,8** % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi **2,4** % ga koʻpayib, **17,2** % ni tashkil etdi.

2025-yilning yanvar-iyun oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **67,5** % i toʻgʻri kelib, 2024-yilning mos davriga nisbatan **1,2** % ga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga toʻgʻri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan **114,9** % ni tashkil etgan holda **1 757,8** mlrd soʻm miqdorida qayd etildi.

### Shahar va tumanlar kesimida korxonalar turlari boʻyicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd soʻm			Oʻsish surʼati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
<b>Sirdaryo viloyati *</b>	<b>447,5</b>	<b>1 757,8</b>	<b>398,7</b>	<b>135,8</b>	<b>114,9</b>	<b>105,9</b>
Guliston sh.	19,6	425,5	41,8	193,3	105,9	71,3
Shirin sh.	111,9	27,8	2,6	149,9	67,2	145,9
Yangiyer sh.	0,0	220,0	10,7	0,0	111,5	171,9
Boyovut	5,9	26,5	14,1	172,9	96,9	93,5
Guliston	24,7	30,6	7,5	689,9	69,2	94,4
Mirzaobod	77,6	519,1	7,1	83,6	164,2	119,6
Oqoltin	4,1	35,0	6,1	49,8	134,5	81,6
Sardoba	77,3	53,4	8,9	141,7	89,8	117,4
Sayxunobod	4,0	51,5	6,8	147,3	114,3	91,4
Sirdaryo	38,3	85,2	61,6	185,1	76,4	173,6
Xovos	14,3	32,8	11,3	229,8	100,8	75,7

\* Viloyat umumiy koʻrsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi **15,3** % ni yoki **398,7** mlrd soʻmni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan **105,9** % ni tashkil etdi. Shundan **245,5** mlrd soʻmi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga toʻgʻri kelib, 2024-yilning mos davriga nisbatan **105,5** % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi **2,9** mlrd soʻmni, yakka tartibdagi turar-joylarni taʼmirlash ishlari **150,3** mlrd soʻmni va **106,9** % ni tashkil etdi.

## V. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

**Qurilish ishlari** – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi Davlat kadastrlari palatasining Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi statistika hisobotlari;
- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

## Sirdaryo viloyatida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari <sup>1</sup>

2025- yil yanvar-iyun


- I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
- II. Xizmatlar sohasini hududlar kesimida rivojlanishi
- III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari
- IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar
- V. Foydali havolalar

### I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

2025- yil yanvar-iyun oylarida dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda, bozor xizmatlari hajmi **6 350,9** mlrd so'mni tashkil etdi. 2024- yil mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **114,1** % ni tashkil etib, uning hajmi esa **1 198,7** mlrd so'mga o'sishi qayd etildi.

**Ma'lumot uchun:** 2024- yil yanvar-iyun oylarida xizmatlar hajmi **5 152,2** mlrd so'mni, o'sish sur'ati esa **111,4** % ni tashkil etgan.

### Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati dinamikasi



2024- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan (**5 612,4** ming so'm) 2025- yilning mos davrida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 182,2** ming so'mga yoki **12,0** % ga o'sib, **6 794,6** ming so'mni tashkil etgan.

<sup>1</sup> 2024- yil yanvar-iyun oylari hajmi va 2025- yil yanvar-iyun oylari uchun ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda shakllantirilgan.



2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **4 098,9** mlrd so'mni yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **64,5 %** ini, jumladan, **43,3 %** ini kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etdi.

## II. Xizmatlar sohasini shahar va tumanlar kesimida rivojlanishi

### Xizmatlar sohasining shahar va tumanlar kesimidagi asosiy ko'rsatkichlari 2025- yil yanvar-iyun

	Hajmi, mlrd so'm	Ulushi, %	O'sish sur'ati, %
<b>Sirdaryo viloyati <sup>2</sup></b>	<b>6 350,9</b>	<b>100,0</b>	<b>114,1</b>
<i>shaharlar:</i>			
Guliston	1 808,5	28,5	114,3
Shirin	65,8	1,0	114,2
Yangiyer	302,0	4,8	114,6
<i>tumanlar:</i>			
Boyovut	381,9	6,0	129,0
Guliston	177,7	2,8	113,5
Mirzaobod	176,7	2,8	110,2
Oqoltin	154,2	2,4	114,1
Sardoba	181,7	2,9	114,0
Sayxunobod	171,3	2,7	110,4
Sirdaryo	637,3	10,0	113,9
Xovos	194,4	3,1	114,3

#### Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:

#### [Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining shahar va tumanlar kesimidagi hajmi](#)

Guliston shahrining yuqori ulushi (**28,5 %**) uning poytaxt maqomi bilan izohlanadi, u Sirdaryoning eng yirik shahridir. Poytaxtda davlat idoralari, xalqaro tashkilotlar, banklar va yirik kompaniyalar jamlangan bo'lib, tabiiyki, aholi zichligi transport, savdo, ta'lim, sog'liqni saqlash, hordiq chiqarish kabilarga bo'lgan talabni oshiradi. Guliston rivojlangan transport tizimi, savdo va biznes markazlari hamda boshqa yirik obyektlarga ega shahar, bu esa xizmatlar sohasining tobora rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi.

<sup>2</sup> Shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda.

### III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagi "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-78-son qarorida mamlakatimiz iqtisodiyotida xizmatlar sohasi ulushini oshirish, shuningdek, sohada faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida xizmatlar sohasini rivojlantirish hamda uning monitoringini yuritish bo'yicha maqsadli parametrlari belgilangan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishida aloqa va axborotlashtirish xizmatlar **14,0** % ga (ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining o'sishiga hissassi **0,6** bandni tashkil etdi), moliyaviy xizmatlar **20,3** % ga (o'sishiga hissassi **4,3** band), transport xizmatlari **11,3** % ga (o'sishiga hissassi **1,1** band), yashash va ovqatlanish xizmatlari **11,6**% ga (o'sishiga hissassi **3,3** band), savdo xizmatlari **10,1** % ga (o'sishiga qo'shgan hissassi **1,7** band) va ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar **8,9** % ga (o'sishiga hissassi **0,2** band) asosiy omili bo'lib hisoblanadi.

#### Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari (yanvar-iyun)

	Hajmi, mlrd so'm		O'sish sur'ati, %
	2024- y.	2025- y.	
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>5 152,2</b>	<b>6 350,9</b>	<b>114,1</b>
<i>shundan:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	227,1	279,8	114,0
moliyaviy xizmatlar	1 082,3	1 332,2	120,3
transport xizmatlari	518,3	636,0	111,3
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	<i>486,6</i>	<i>595,2</i>	<i>110,5</i>
yashash va ovqatlanish xizmatlari	1 454,4	1 773,8	111,6
savdo xizmatlari	886,3	1 030,7	110,1
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	116,9	142,3	108,9
ta'lim sohasidagi xizmatlar	144,6	180,4	105,3
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	124,7	165,5	121,2
ijara xizmatlari	85,8	97,7	105,0
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	100,6	120,1	107,7
shaxsiy xizmatlar	79,8	101,8	109,4
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	29,2	33,0	104,5
boshqa xizmatlar	302,2	457,6	129,8


**Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:**

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy turlari bo'yicha hajmi](#)

2025- yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida yashash va ovqatlanish xizmatlari **27,9 %**, transport xizmatlari **10,0 %**, savdo xizmatlari **16,2 %**, moliyaviy xizmatlar **21,0 %**, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **4,4 %**, ta'lim sohasidagi xizmatlar esa **2,9 %** ulushini tashkil etdi.

*Taqqoslash uchun: 2024- yilning tahlil qilinayotgan davrida xizmatlarning umumiy hajmida yashash va ovqatlanish xizmatlari **28,2 foiz**, transport xizmatlari **10,1 foiz**, savdo xizmatlari **17,2 foiz**, moliyaviy xizmatlar **21,0 foiz**, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **4,4 foiz**, ta'lim sohasidagi xizmatlar esa **2,8 foiz** ulushni tashkil etgan.*


**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining asosiy turlari bo'yicha tarkibi**  
2025- yil yanvar-iyun, %



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmining o'sishiga telekommunikatsiya xizmatlarining o'sishi ta'sir ko'rsatdi. 2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida ushbu turdagi xizmatlarning aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **77,7 foizni** tashkil etdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan esa **10,0 foizga** o'sgan.

2025- yilning yanvar-iyun oylarida savdo xizmatlari tarkibidagi chakana savdoning o'sishi kuzatildi. 2024- yilning mos davriga nisbatan hajmi **81,6 mlrd so'mga** yoki **9,7 foizga** o'sishi kuzatilgan.

### Savdo xizmatlarining o‘shish sur‘ati dinamikasi



2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta‘mirlash bo‘yicha xizmatlar sohasida kompyuterlar va periferik uskunalarni ta‘mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish xizmatlari (**112,9** %), kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta‘mirlash xizmatlari (**108,7** %) xizmatlarida yuqori o‘shish sur‘ati qayd etildi. Mebellar va uy-ro‘zg‘or anjomlarini ta‘mirlash bo‘yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta‘mirlash xizmatlarining **28,8** foizini tashkil etadi.

Maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog‘ uchun uskunalari (gazon o‘ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta‘mirlash xizmatlari shu sohani rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Sirdaryoda yashash va ovqatlanish xizmatlarining rivojlanishi sezilarli o‘shishni ko‘rsatmoqda, bu sayyohlar oqimining ko‘payishi, ishbilarmonlik aloqalarining kengayishi va mamlakatda infratuzilmaning yaxshilanishi bilan keskin bog‘liqdir. Ushbu xizmatlarning o‘shishiga oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta‘minlash bo‘yicha xizmatlar hajmining oshishi ta‘sir ko‘rsatdi, yashash va ovqatlanish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **99,0** % ni tashkil etdi. 2025- yilning yanvar-iyun oylarida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta‘minlash bo‘yicha xizmatlarning o‘shish sur‘ati **111,4** % ni tashkil etdi.

#### IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar

##### Xizmatlarning har oylik hajmi quyidagilar asosida shakllantiriladi:

a) tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxslar (kichik korxonalar, mikrofirma va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilaridan tashqari), tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari va notijorat tashkilotlar bo'yicha statistik hisobot (ro'yxat bo'yicha);

b) kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini choraklik kuzatuv ma'lumotlari hamda kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot natijalari bo'yicha baholash;

d) fermer xo'jaliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini tegishli statistika hisobotlari ma'lumotlariga asosan baholash;

e) yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini har chorakda o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlarining natijalari bo'yicha baholash.

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bu** --- xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan va xizmat ko'rsatish asosiy faoliyat turi hisoblanmaydigan barcha xizmatlar ko'rsatuvchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) tomonidan iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo'shgan holda) ma'lum bir vaqt davomida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatidir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida** ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlari bo'yicha **hisoblangan to'lovlar qo'shilgan qiymat solig'i va aksizsiz** hisobga olinadi.

Xizmatlar oldi-sotdi obyekti bo'lib, iqtisodiy ahamiyatga ega (xizmatlarni ishlab chiqaruvchining sarf-xarajatlarini to'laligicha yoki sezilarli darajada qoplaydigan) narxlarda sotilganda **bozor xizmatlari ishlab chiqarilishi** hisoblanadi. Iste'molchilar tomonidan xizmatlar uchun to'lovlar naqd pul, shu jumladan, plastik kartochkalar va pul o'tkazish, elektron to'lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

**Norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar** (agar to'lov so'mda amalga oshirilmagan bo'lsa), xizmatlarga to'lovlarni amalga oshirish sanasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan so'mning belgilangan kursi bo'yicha qayta hisoblangan shartnoma narxlari bo'yicha aniqlanadi.

Faoliyat turlari bo'yicha **xizmatlarni tasniflash**, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichiga muvofiq amalga oshiriladi.

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi** MST bo'yicha tasniflangan barcha iqtisodiy faoliyat turlarining xizmatlarga tegishli qismi (G-S seksiyalar) bo'yicha shakllantiriladi.

#### V. Foydali havolalar

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining statistik hisobi bo'yicha uslubiy nizom](#)

[O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning \(tovarlar, ishlar, xizmatlarning\) statistik tasniflagichi \(MST\)](#)

[O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning \(tovarlar, ishlar, xizmatlarning\) statistik tasniflagichining G, H, I, J, K, L, M, N, O, P, Q, R va S seksiyalari kodlarining batafsil \(kengaytirilgan\) ro'yxati.](#)



## VI. Transport 2025 yil yanvar-iyun

- I. Yuk tashish va yuk aylanmasi
- II. Yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi
- III. Uslubiy ma'lumotlar
- IV. Foydali havolalar

### I. Yuk tashish va yuk aylanmasi

2025-yil yanvar-iyun oylarida avtomobil transporti tomonidan **9,5** mln. tonna yuk tashilgan bo'lib, o'sish sur'ati 2024-yilga nisbatan **103,3** % ni tashkil qildi.

Yuk aylanmasi avtomobil transporti turlari tomonidan **194,6** mln. t-km.ni tashkil etdi va 2024-yilga nisbatan o'sish sur'ati **105,1** % ni tashkil qildi.

#### Yuk tashish (2025 yil yanvar-iyun)

	Hajmi	O'sish sur'ati, % da
Tashilgan yuk, mln. t	9,5	103,3
Yuk aylanmasi, mln. t-km	194,6	105,1

#### Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

##### Tashilgan yuklar hajmi

Yakka tartibdagi tadbirkorlarning avtomobil transportining yuk aylanmasining o'sish sur'ati 2024-yilga nisbatan **100,8** % ni tashkil etdi va **68,9** mln. t-km. ga yetdi. Yuk aylanmasining umumiy hajmida hususiy yuk tashuvchilarning ulushi **87,0** % ni tashkil etdi (2024-yilda **87,8** foiz).

Sirdaryo viloyatining shahar va tumanlar bo'yicha tashilgan yuk bo'yicha yetakchi o'rinni Guliston shahri (**1 722,7** ming tonna) egallaydi. Shu bilan birga, eng yuqori tonnani Sayxunobod (**1 495,5** ming tonna) va Sirdaryo (**1 400,8** ming tonna) tumanlarida kuzatildi.


Shahar va tumanlar kesimida yuk tashish, *ming tonna*  
2025-yilning yanvar–iyun

	Hajmi, ming tonna	Ulushi, %	O‘shish sur‘ati, %
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>9 465,1</b>	<b>100,0</b>	<b>103,3</b>
<i>shaharlar:</i>			
Guliston	1 722,7	18,2	104,5
Shirin	359,7	3,8	103,3
Yangiyer	738,3	7,8	104,7
<i>tumanlar:</i>			
Boyovut	662,6	7,0	104,8
Guliston	672,0	7,1	101,9
Mirzaobod	1 050,6	11,1	104,3
Oqoltin	312,3	3,3	106,6
Sardoba	160,9	1,7	67,6
Sayxunobod	1 495,5	15,8	104,7
Sirdaryo	1 400,8	14,8	104,0
Xovos	889,7	9,4	104,4

Ko‘rsatilgan yuk tashishda yuqori bo‘lmagan ko‘rsatkichlar Sardoba (**160,9** ming tonna) va Oqoltin (**312,3** ming tonna) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

2025 yilning yanvar-iyun oylarida transport turlari yuk aylanmasining jami hajmi **194,6** mln tonna-km (o‘shishi **5,1** %)ni tashkil etdi.

### Avtomobil transportida yuk tashish va yuk aylanmasining o'rish sur'atlari (2025 yil yanvar-iyun)



**Taqqoslash uchun:** 2024 yil yanvar-iyun oylarida avtomobil transporti yuk aylanmasining o'rish sur'ati **102,4 %** ni tashkil etgan. Avtomobil transportida tashilgan yuklar hajmi **9,2 mln tonna**, ya'ni, 2023 yilning yanvar-iyuniga nisbatan **0,8 %** ga o'sishi qayd etilgan.

## II. Yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi

2025 yilning yanvar-iyun oylarida barcha transport turlarida yo'lovchi tashish ko'rsatkichi 2024 yilning mos davriga nisbatan **4,3 %** ga o'sib, uning hajmi **44,7 mln** nafar yo'lovchini tashkil etdi.

	Hajmi	O'rish sur'ati, % da
Transportda tashilgan yo'lovchilar, mln. kishi	44,7	104,3
Yo'lovchi aylanmasi, mln. yo'lovchi-km	1354,0	103,6

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Tashilgan yuklar hajmi](#)

Yakka tartibdagi tadbirkorlarning avtomobil transportining yo'lovchi aylanmasining o'rish sur'ati 2024-yilga nisbatan **101,7 %** ni tashkil etdi va **865,9 mln. t-km.** ga yetdi. Yo'lovchi aylanmasi umumiy hajmida hususiy yo'lovchi tashuvchilarning ulushi **98,1 %** ni tashkil etdi (2024-yilda **98,7 foiz**).



Sirdaryo viloyatining shahar va tumanlar bo'yicha tashilgan yo'lovchi bo'yicha yetakchi o'rinni Guliston shahri (**9 793,7** ming kishi) egallaydi. Shu bilan birga, eng yuqori tonnani Sirdaryo (**9 480,7** ming kishi) va Boyovut (**4 516,7** ming kishi) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida yo'lovchi tashish, *ming kishi*  
(2025-yil yanvar–iyun)

	Hajmi, ming kishi	Ulushi, %	O'sish sur'ati, %
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>44 720,2</b>	<b>100,0</b>	<b>104,3</b>
<i>shaharlar:</i>			
Guliston	9 793,7	21,9	104,8
Shirin	939,1	2,1	109,5
Yangiyer	3 532,9	7,9	105,6
<i>tumanlar:</i>			
Boyovut	4 516,7	10,1	100,3
Guliston	2 549,1	5,7	106,1
Mirzaobod	4 114,3	9,2	103,2
Oqoltin	1 699,4	3,8	107,1
Sardoba	1 833,5	4,1	101,8
Sayxunobod	2 906,8	6,5	105,9
Sirdaryo	9 480,7	21,2	104,8
Xovos	3 354,0	7,5	102,9

Ko'rsatilgan yo'lovchi tashishda nisbatan uncha yuqori bo'lmagan ko'rsatkichlar, Shirin shahri (**939,1** ming kishi) va Oqoltin tumani (**1 699,4** ming kishi) hissasiga to'g'ri keldi.



### III. Uslubiy ma'lumotlar

**Transport statistikasi** – transportda sodir bo'ladigan hodisalar va jarayonlarni o'rganadigan statistika sohasidir. Transport statistikasi ko'rsatkichlari transportning alohida turlari bo'yicha ma'lumotlarni: temir yo'l, avtomobil, shahar elektr, quvur yo'li va havo ma'lumotlarini o'z ichiga oladi.

**Yuk tashish (yuk tashish hajmi)** – transport orqali tashilgan yuklarning tonnalardagi miqdori (pullik bagaj va pochmani qo'shgan holda). Ko'rsatkich transport turlari, qatnov, yuk turlari bo'yicha hisobga olinadi. Yuklarni tashish jarayonining dastlabki daqiqasi “jo'natilgan yuklar (jo'natish)” ko'rsatkichi bilan aks ettiriladi, yakuniy nuqta – “kelib tushgan yuklar (kelib tushishi)” ko'rsatkichi hisoblanadi.

**Tashilgan yo'lovchilar** – ma'lum vaqt davomida avtomobil vositalarida turli qatnov turlari bo'yicha tashilgan yo'lovchilar soni (statistik kuzatuv birligi bo'lib yo'lovchi-qatnovi hisoblanadi).

**Yo'lovchi aylanmasi** – transportning yo'lovchi tashish bo'yicha ish hajmi. O'lchov birligi yo'lovchi-kilometr hisoblanadi. Har bir tashish bo'yicha yo'lovchilar sonini tashish masofasiga ko'paytmasini yig'indisi orqali aniqlanadi. Qatnov turlari va boshqa belgilar bo'yicha alohida hisoblanadi.

**Yo'l-transporti hodisasi** – transport vositasining yo'ldagi qatnovi jarayonida sodir bo'lib, fuqarolarning o'limi yoki ularning sog'lig'iga zarar yetishiga, transport vositalari, inshootlar, yuklar shikastlanishiga yoki boshqa tarzda moddiy zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan hodisa.

**Aloqa statistikasi bu** – aloqa kabi iqtisodiy sektorning ommaviy jarayonlari va hodisalarini o'rganadigan statistika fanining bir tarmog'idir.

### 5. Foydali havolalar

[Transport statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish bo'yicha uslubiy nizam](#)

[Avtomobil transporti faoliyatining asosiy ko'rsatkichlarini aniqlash bo'yicha uslubiy nizam](#)

### Kichik korxonalar va mikrofirmalarning yanvar-iyun oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)




### Kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash


Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2025-yilning II choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatini qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi sanoatda – 32,1 % ni, savdoda – 39,5, % ni va xizmatlar sohasida – 45,2, % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 79,3 % ni, sanoatda – 62,3 % ni va savdoda – 54,8 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 6,1 % ni, sanoatda – 5,7 % ni va savdoda – 5,7 % ni tashkil etdi.



### Biznesga ishonch muhitini baholash (o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar)





#### **V. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar**

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.


### XIII. Korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy natijalari 2025 yil yanvar-may

- I. Korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy natijalari
- II. Korxonalar va tashkilotlarning debitorlik qarzdorligi holati
- III. Korxonalar va tashkilotlarning kreditorlik qarzdorligi holati
- IV. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi statistik ko'rsatkichlar bo'yicha tushuntirishlar

#### I. Korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy natijalari

##### Yakuniy moliyaviy natijalarning yillar bo'yicha dinamikasi

(yanvar-may oylarida, mlrd so'm)



##### Foydaning o'sishi va kamayishi

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida moliyaviy natijasi zarar bilan yakunlangan korxonalarining asosiy qismi ishlab chiqaradigan sanoatda **92,1 %**, Axborot va aloqa **4,3 %**, Boshqarish buyicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatishda **2,7 %** ga to'g'ri keldi.

#### II. Korxonalar va tashkilotlarning debitorlik qarzdorligi holati

##### Korxonalar va tashkilotlarning debitor qarzdorligi dinamikasi

(1 iyun holatiga, mlrd so'm)

Debitor qarzdorlik 2021- yilda **2 563,1** mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa 2025- yilga kelib **1 582,1** mlrd so'm tashkil etdi.





Tumanlar kesimida debitor qarzdorlikning asosiy qismi Sirdaryo tumanida **648,0** mlrd so‘m, Sayxunobod tumanida **410,7** mlrd so‘m, Guliston tumanida **171,3** mlrd so‘mga to‘g‘ri keldi.

**Shahar va tumanlar kesimida debitor qarzdorlik**  
(1 iyun holatiga, mlrd so‘m)

	debitor qarzdorlik	
	jami	Shundan: muddati o‘tgan
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>1 582,1</b>	<b>38,4</b>
Guliston sh	124,0	16,4
Shirin sh	38,0	-
Yangiyer sh	4,6	-
Oqoltin tumani	-	-
Boyovut tumani	59,5	-
Sayxunobod tumani	410,7	22,0
Guliston tumani	171,3	-
Sardoba tumani	39,2	-
Mirzaobod tumani	24,6	-
Sirdaryo tumani	648,0	-
Xovos tumani	62,1	-

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha debitor qarzdorlikning eng ko‘p ulushi ishlab chiqaradigan sanoatda **87,6** % Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va mototsikllarni ta‘mirlash **4,0** % va Ko‘chmas mulk bilan operatsiyalarda **3,2** %, ni tashkil etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha debitor qarzdorlikning tarkibi**  
(2025 yil 1 iyun holatiga)


	Debitor qarzdorlik, mlrd so‘m	shundan, muddati o‘tgan qarzdorlik ulushi, % da
<b>Jami</b>	<b>1 582,1</b>	<b>38,4</b>
Ishlab chiqaradigan sanoat	1 386,2	23,0
Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilitatsiya qilish	39,1	15,2
Qurilish	10,3	-
Savdo	64,1	-
Ko‘chmas mulk bilan operatsiyalar	50,6	-
Boshqalar	31,8	0,2

### III. Korxonalar va tashkilotlarning kreditorlik qarzdorligi holati

#### Korxonalar va tashkilotlarning kreditor qarzdorligi dinamikasi

(1 iyun holatiga, mlrd so‘m)

Kreditor qarzdorlik 2021- yilda 18 852,6 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa 2025- yilga kelib 1 634,2 mlrd so‘mga to‘g‘ri keldi.



2025 yilning 1 iyun holatiga kreditor qarzdorlikning asosiy qismi yetkazib beruvchilarga va pudratchilarga – 885,0 mlrd so‘m (jami qarzdorlikning 52,3 % i), olingan bo‘naklar – 409,0 mlrd so‘m (25,0 %), ichki idoraviy qarzlari – 74,3 mlrd so‘m (4,5 %) va budjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzi – 48,7 mlrd so‘m (3,0 %)ga to‘g‘ri keldi.

Tumanlar kesimida kreditor qarzdorlikning asosiy qismi Sayxunobod tumanida 394,8 mlrd so‘m, Sirdaryo tumanida 418,1 mlrd so‘m, Boyovut tumanida 257,5 mlrd so‘mga to‘g‘ri keldi.

#### Shahar va tumanlar kesimida kreditor qarzdorlik

(1 iyun holatiga, mlrd so‘m)

	kreditor qarzdorlik	
	jami	Shundan: muddati o‘tgan
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>1 634,2</b>	<b>5,6</b>
Guliston sh	223,0	5,0
Shirin sh	5,6	-
Yangiyer sh	5,8	-
Oqoltin tumani	-	-
Boyovut tumani	257,5	-
Sayxunobod tumani	394,8	0,6
Guliston tumani	109,8	-
Sardoba tumani	54,4	-
Mirzaobod tumani	123,0	-
Sirdaryo tumani	418,1	-
Xovos tumani	42,2	-



#### IV. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi statistik ko'rsatkichlar bo'yicha tushuntirishlar

Moliyaviy natijalar, debitor va kreditor qarzdorlikning har oylik asosiy ko'rsatkichlari quyidagilar asosida shakllantiriladi:

a) 12 moliya (oylik) "Tashkilotning moliyaviy ahvoli to'g'risida hisobot"ni taqdim etuvchi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq yuridik shaxs hisoblanuvchi tijorat tashkilotlari hamda ularning mulkiga ega bo'lgan, mulkni xo'jalik yuritish yoki operativ boshqaruvga olib, ushbu mulk bilan o'z majburiyatlariga javob beruvchi, shuningdek, soliq qonunchiligiga asosan mustaqil balansga va hisob raqamiga ega bo'lgan soliq to'lovchi alohida bo'linmalari ma'lumotlari bo'yicha;

b) budjet va boshqa notijorat tashkilotlar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar, fermer va dehqon xo'jaliklari, sug'urta tashkilotlari, banklar, kichik korxonalar va mikrofirmalarning ko'rsatkichlari kiritilmagan;

v) qarzdorlik bo'yicha ko'rsatkichlar avvalgi yillardan o'tib kelayotgan qarzlarni qo'shgan holda, hisobot davridan keyingi oyning 1-sanasi holatiga shakllantirilgan.


## Sirdaryo viloyatidagi korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha ma'lumot

2025-yil 1-iyul holatiga ko'ra (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz)

- I. Korxonalar va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxonalar va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

### I. Korxonalar va tashkilotlarning soni

2025-yil 1-iyul holatiga ko'ra, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) **12 027** tani tashkil etdi, shundan **9 896** tasi yoki **82,3** foizi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keladi.



### Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (birlikda)

Yil	Korxonalar va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan: Kichik biznes subyektlari
2025	12 027	9 966	9 896
2024	12 129	9 977	9 912
2023	13 405	11 283	11 223
2022	16 515	14 400	14 334
2021	16 179	14 150	14 094



Hududlar bo'yicha eng ko'p faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar Guliston shahrida – 25,1 foiz, Sirdaryo – 12,3 foiz, Boyovut – 9,0 foiz, Mirzaobod – 8,9 foiz va Sardoba – 8,7 foiz tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

Tadbirkorlik subyektlarining faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonidagi salmoqli ulushi Sardobada – 88,0 foiz, Yangiyer shahrida – 87,8 foiz, Mirzaobod – 85,7 foiz hamda Oqoltin – 84,7 foiz tumanlariga to'g'ri keldi.

**Hududlar kesimida korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar**

Hududlar	Korxonalar va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>12 027</b>	<b>9 966</b>	<b>9 896</b>
Guliston shahri	3 016	2 467	2 446
Yangiyer shahri	860	755	753
Shirin shahri	279	217	214
Boyovut tumani	1 085	867	862
Guliston tumani	878	723	722
Mirzaobod tumani	1 065	913	905
Oqoltin tumani	777	658	657
Sayxunobod tumani	832	676	670
Sardoba tumani	1 043	918	912
Sirdaryo tumani	1 477	1 225	1 212
Xovos tumani	715	547	543

**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**


[Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

### Korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlarning eng ko'p qismi "Savdo" tarmog'ida qolmoqda, ularning jami sonidagi ulushi **30,6** foizni tashkil etdi.



Ikkinchi o'rinda "Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi" **16,5** foizni, uchinchi o'rinda "Sanoat" **10,1** foiz. Birgalikda ushbu uch turdagi faoliyat ularning umumiy sonining **57,2** foizdan ortig'ini tashkil qiladi.

#### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)

Tumanlar	Korxonalar va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan: Kichik biznes subyektlari
<b>Jami:</b>	<b>12 027</b>	<b>9 966</b>	<b>9 896</b>
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1 981	1 966	1 956
Sanoat	1 210	1 205	1 176
Qurilish	856	846	841
Savdo	3 683	3 682	3 678
Tashish va saqlash	281	279	278
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	693	691	690
Axborot va aloqa	188	178	176
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	200	141	137
Boshqa turlar	2 935	978	964

## II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar

2025-yil 1-iyul holatiga ko'ra, **9 966** ta faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalaridan **8 545** tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tashkil etilgan bo'lib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinda turadi.

Tashkiliy-huquqiy shakli	2021	2022	2023	2024	2025
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	10 458	11 233	9 409	8 471	8 545
Xususiy korxonalar	2 945	2 428	1 331	1 003	958
Oilaviy korxonalar	361	351	241	304	286
Aksiyadorlik jamiyati	22	20	14	12	12
Boshqalar	364	368	288	187	165


Shundan kelib chiqib, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar mamlakatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Tashkiliy-huquqiy shakli	Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)
<b>Jami</b>	<b>9 966</b>	<b>100,0</b>
Mas'uliyati cheklangan jamiyati	8 545	85,7
Xususiy korxonalar	958	9,6
Oilaviy korxonalar	286	2,9
Aksiyadorlik jamiyati	12	0,1
Boshqalar	165	1,7

### III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shniçilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan **243** ta korxonalaridan **82** tasi qo'shma korxonalar va **161** tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



#### Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar

2025- yilning 1-iyul holatiga ko'ra xorijiy investitsiyalar ishtirokida eng ko'p faoliyat ko'rsatayotgan yo'nalishlar bu sanoat sohasidagi korxonalar soni **121** ta, savdo sohasida **41** ta va qishloq, o'rmon va baliqçilik xo'jaligi sohasida **29** tani tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
<b>Jami:</b>	<b>243</b>	<b>82</b>	<b>161</b>
Qishloq, o'rmon va baliqçilik xo'jaligi	29	13	16
Sanoat	121	45	76
Qurilish	6	3	3
Savdo	41	11	30
Tashish va saqlash	8	5	3
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2	1	1
Axborot va aloqa	24	-	24
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-	-	-
Boshqa turlar	12	4	8

### Davlatlarning ulushi mavjud bo‘lgan faoliyat ko‘rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

Viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar tahlil qilinganda, yetakchi o‘rinni **100** ta korxonalar bilan Xitoy davlati egalladi.

Bu viloyatdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar umumiy sonining **41,2** foizini tashkil etdi. O‘zbekiston iqtisodiyotiga o‘z kapitalini kiritib hissasini qo‘shayotgan mamlakatlar orasida Rossiya Federatsiyasi (**13,2** %), Turkiya (**10,3** %), Qozog‘iston (**7,0** %) va Tojikiston (**6,6** %) ham alohida o‘rin egallaydi.

Davlatlar	Jami:	shundan:	
		Qo‘shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
Xitoy	100	28	72
Rossiya	32	12	20
Turkiya	25	9	16
Tojikiston	16	6	10
Qozog‘iston	17	8	9
Afg‘oniston	13	4	9
Qirg‘iziston	7	2	5
BAA	7	1	6
Buyuk Britaniya	6	3	3
Janubiy Koreya	5	-	5
Ozarbayjon	5	3	2
Pokiston	4	2	2
AQSH	2	2	1

#### IV. Korxonalar va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

Registrlarni yuritish bo'yicha statistik faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo'lib Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539-son qaroriga muvofiq Korxonalar va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2025-yil 1-iyul holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

##### Metama'lumot uchun havolalar:

[Metama'lumot Korxonalar va tashkilotlar soni](#)

[Glossariy](#)

[Statistik klassifikatsiyalar](#)

##### Mavzuga doir ko'rsatkichlar::

[Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyati soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sanoat yo'nalishida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Qurilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Savdo sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Tashish va saqlash xizmatlari sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Axborot va aloqa sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)


**Sirdaryo viloyatida oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
*2025-yilning yanvar-iyun oylari uchun (dastlabki ma'lumotlar)*

- I. Oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yillar boʻyicha oʻzgarishi dinamikasi.
- II. Shahar va tumanlar boʻyicha oʻrtacha oylik nominal ish haqi.
- III. Iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi.
- IV. Oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha dinamikasi.
- V. Oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi boʻyicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar.

**I. Oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yillar boʻyicha oʻzgarishi dinamikasi**

Sirdaryo viloyatida 2025-yilning yanvar-iyun oylarida oʻrtacha oylik ish haqi **4 789,8** ming soʻmni tashkil etib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **18,0 %** ga oʻsgan.

**Yillar kesimda oʻrtacha oylik ish haqi, ming soʻm**



Sirdaryo viloyati boʻyicha oʻrtacha oylik nominal ish haqining soʻnggi besh yillik dinamikasi tahlil etilganida, 2021-yilning 2-choragida **2 478,5** ming soʻmni tashkil etgan, ish haqi miqdori 2025-yilning 2-choragiga kelib **4 789,8** ming soʻmni tashkil etdi va soʻnggi besh yilda **2 311,3** ming soʻmga oshdi.

## II. Shahar va tumanlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal ish haqi miqdori

Shahar va tumanlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar 2025-yilning yanvar-iyun oylari uchun keltirilgan bo'lib, 2024-yilning mos davri bilan taqqoslangan.

	Ming so'm	O'sish sur'ati, % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>4 789,8</b>	<b>118,0</b>
Guliston shahri	5 528,8	118,1
Shirin shahri	7 920,2	113,5
Yangiyer shahri	5 250,3	116,6
<i>tumanlar:</i>		
Oqoltin	3 552,5	112,8
Boyovut	5 724,6	124,9
Sayxunobod	3 749,5	111,1
Guliston	3 277,2	116,7
Sardoba	4 025,7	129,4
Mirzaobod	3 566,2	109,2
Sirdaryo	3 790,9	117,7
Xovos	3 950,3	116,2

Tumanlar kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqlari bo'yicha eng yuqori o'sish sur'atlari shahar va tumanlarda kuzatildi. Jumladan, Sardoba tumani bu borada yetakchilik qilib, o'rtacha oylik ish haqi **4 025,7** ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **29,4%** ga o'sganligi kuzatildi.

Shuningdek, bu ko'rsatkich Boyovut tumanida **5 724,6** ming so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati (124,9%), Guliston shahrida **5 528,8** ming so'mni (**118,1%**), Sirdaryo tumanida **3 790,9** ming so'mni (**117,7%**), Guliston tumanida **3 277,2** ming so'mni (**116,7%**), Yangiyer shahrida 5250,3 ming so'mni (116,6%) va Xovos tumanida **3 950,3** ming so'mni (**116,2%**) tashkil etgan.

O'z o'rnida, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi Mirzaobod tumanida **3 566,2** ming so'm (**109,2%**), Sayxunobod tumanida **3 749,5** ming so'mni (**111,1%**), Oqoltin tumanida **3 552,5** ming so'mni (**112,8%**) hamda Shirin shahrida **7 920,2** ming so'mni (**113,5%**) tashkil etib, boshqa tumanlarga nisbatan o'sish sur'ati pastroq ekanligi kuzatildi.

### III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal ish haqi miqdori haqida ma'lumotlar 2025-yilning yanvar-iyun oylariga oid bo'lib, 2024-yilning shu davriga nisbatan taqqoslangan. Bu taqqoslash orqali sohalar kesimida farqlar va o'zgarishlar tahlil qilindi.

Iqtisodiy faoliyat turi nomi	Ming so'm	O'sish sur'ati, % da
Sanoat	5 451,3	126,5
Qurilish	4 113,3	107,4
Savdo	4 538,6	116,2
Tashish va saqlash	5 544,2	97,5
Yashash va ovqatlanish	1 684,2	114,4
Axborot va aloqa	8 602,5	120,9
Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati	11 388,9	117,8
Ta'lim	3 854,2	116,0
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	3 386,3	109,1
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	3 283,7	125,6
<b>O'rtacha</b>	<b>4 789,8</b>	<b>118,0</b>

O'rtacha oylik nominal ish haqi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tahlil qilinganida eng yuqori o'sish sur'atlari sanoat sohasida qayd etilganligi, xususan, bu sohada 2024-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **126,5%** ni tashkil qilgani, ish haqi miqdori esa **5 451,3** ming so'mga yetganligi kuzatildi.

Shuningdek, san'at, ko'ngil ochish va dam olish sohasida ish haqi miqdori **3 283,7** ming so'mni tashkil etib, **25,6 %** ga, axborot va aloqa sohasida ham sezilarli o'sish sur'ati kuzatilib, ish haqi miqdori **8 602,5** ming so'mni tashkil etib, o'sish **20,9 %** ga, bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati sohasida **11 388,9** ming so'mni tashkil etib, **17,8 %** ga, savdo sohasida o'rtacha ish haqi **4 538,6** ming so'mni tashkil etib, **16,2 %** ga, ta'lim sohasida esa **3 854,2** ming so'mni tashkil etib, **16,0 %** ga oshganligi kuzatildi.


Shu bilan birga, o‘rtacha oylik nominal ish haqi yashash va ovqatlanish sohasida **1 684,2** ming so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **14,4 %** ga, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sohasida **3 386,3** ming so‘mni tashkil etib, **9,1 %** ga, qurilish sohasida esa **4 113,3** ming so‘mni tashkil etib **7,4 %** ga o‘sgan bo‘lsada boshqa tarmoqlarga nisbatan o‘shish sur‘ati pastroq ekanligi kuzatildi.

#### IV. O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha dinamikasi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqi miqdorining so‘nggi besh yildagi o‘zgarishi tahlil etilganida, 2025-yilning 2-choragida bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida ish haqi miqdori **11 388,9** ming so‘mni tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan **5 853,4** ming so‘mga oshganligi kuzatildi.


Shuningdek, so‘nggi besh yilda axborot va aloqa sohasi bo‘yicha ish haqi miqdori **5 686,2** ming so‘mga, sanoat sohasida **3 081,8** ming so‘mga, tashish va saqlash sohasida **3 928,9** ming so‘mga, savdo **2 189,6** ming so‘mga, qurilish sohasida **1 705,1** ming so‘mga ko‘payganligi kuzatildi.

#### O‘rtacha oylik ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘zgarish dinamikasi, ming so‘m




**Sanoat sohasida** oʻrtacha oylik ish haqi **5 451,3** ming soʻmni tashkil etgan boʻlsa, uning tarkibi boʻyicha oʻrtacha oylik ish haqi miqdori elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash sohasida **9 052,7** ming soʻm, ishlab chiqarish sanoati sohasida **4 027,5** ming soʻm, suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilitatsiya qilish sohasida **3 586,6** ming soʻm ekanligi kuzatildi.

#### Sanoat sohasida ish haqi miqdorining oʻzgarish dinamikasi, ming soʻm




**Savdo sohasida** oʻrtacha oylik ish haqi **4 538,6** ming soʻmni tashkil etgan boʻlsa, uning tarkibi boʻyicha oʻrtacha oylik ish haqi miqdori avtomobil va motosikllarning savdosidan tashqari ulgurji savdo sohasida **5 626,7** ming soʻmni, avtomobil va motosikllarning savdosidan tashqari chakana savdo sohasida **2 005,7** ming soʻmni tashkil etgan.

#### Savdo sohasida ish haqi miqdorining oʻzgarish dinamikasi, ming soʻm




**Tashish va saqlash sohasida** oʻrtacha oylik ish haqi **5 544,2** ming soʻmni tashkil etgan boʻlsa, uning ayrim sohalari boʻyicha oʻrtacha oylik ish haqi miqdori quruqlikdagi va quvur transporti sohasida **7 793,0** ming soʻmni, pochta va kuryerlik faoliyati sohasida **2 823,3** ming soʻmni tashkil etgan.

**Tashish va saqlash sohasida ish haqi oʻzgarishi dinamikasi, ming soʻm**




**Axborot va aloqa sohasida** oʻrtacha oylik ish haqi **8 602,5** ming soʻmni tashkil etgan boʻlsa, uning ayrim sohalari boʻyicha oʻrtacha oylik ish haqi aloqa sohasida **9 234,0** ming soʻmni va noshirlik faoliyati sohasida **1 819,5** ming soʻmni tashkil etgan.

**Axborot va aloqa sohasida ish haqi oʻzgarishi dinamikasi, ming soʻm**




Bank, sugʻurta, lizing, kredit va vositachilik sohasida oʻrtacha oylik ish haqi 11 388,9 ming soʻmni tashkil etgan boʻlsa, uning tarkibi boʻyicha oʻrtacha oylik ish haqi majburiy ijtimoiy sugʻurtalashdan tashqari, qayta sugʻurtalash va nafaqa jamgʻarmalari sohasida 18 370,9 ming soʻmni, moliyaviy xizmatlar koʻrsatish va sugʻurtalash boʻyicha yordamchi faoliyat sohasida 6 535,4 ming soʻmni, sugʻurtalash va nafaqa taʼminotidan tashqari moliyaviy xizmatlar sohasida 12 178,6 ming soʻmni tashkil etgan.

**Bank, sugʻurta, lizing, kredit va vositachilik sohasida oʻrtacha oylik ish haqi, ming soʻm**



**Taʼlim sohasining asosiy tarmoqlari boʻyicha oʻrtacha oylik ish haqi, ming soʻm**

Taʼlim sohasida oʻrtacha oylik ish haqi 3 854,2 ming soʻmni tashkil etgan boʻlsa, uning tarkibi boʻyicha oʻrtacha oylik ish haqi oliy taʼlim sohasida 7 198,6 ming soʻmni, texnik va professional taʼlim sohasida 4 112,3 ming soʻmni, umumiy oʻrta taʼlim sohasida 4 194,3 ming soʻmni, maktabgacha taʼlim sohasida esa 2 086,3 ming soʻmni tashkil etgan.



## V. O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi bo‘yicha uslubiy tushuntirishlar va metama’lumotlar

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqi to‘g‘risidagi ma’lumotlar korxonalar va tashkilotlar tomonidan elektron shaklda, onlayn tarzda taqdim etilgan statistika hisobotlari ma’lumotlari asosida kichik korxonalar, mikrofirmalar va qishloq xo‘jaligi korxonalarisiz shakllantirilgan.

Respublikaning barcha korxonalar va tashkilotlari, jumladan kichik korxonalar, mikrofirmalar, fermer xo‘jaliklari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqi to‘g‘risidagi ma’lumotlar yilda bir marotaba shakllantirilib, e’lon qilinadi.

**Ma’lumot uchun:** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 7 apreldagi PF-4609-son Farmoniga muvofiq, kichik tadbirkorlik sub’ektlari va fermer xo‘jaliklari statistika hisobotlarini statistika idoralariga yilda bir marotaba taqdim etishi belgilangan.

**Nominal hisoblangan ish haqi** – ma’lum bir davr (soat, oy, yil) mobaynida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish yoki ko‘rsatilgan xizmat) evaziga ish beruvchilar tomonidan, amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda soliq va boshqa to‘lovlarni o‘z ichiga oluvchi yollanma xodimning mehnatiga haq to‘lash tarzida jismoniy shaxsga pul shaklida hisoblangan daromadlardan iborat.

**Hisobot oyi uchun** nominal hisoblangan ish haqi quyidagicha hisoblanadi:

$$W_n = \frac{F}{L}$$

Bunda:

$W_n$  – nominal hisoblangan ish haqi;

$F$  – hisobot oyi uchun jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar;

$L$  – hisobot oyi uchun xodimlarning o‘rtacha soni;

Nominal hisoblangan o‘rtacha oylik ish haqini hisoblash O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2024 yil 31 maydagi 122-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Iqtisodiyotda ish haqi miqdorini baholash bo‘yicha uslubiy nizom”ga muvofiq amalga oshiriladi.

Metama’lumot uchun havola:

[Iqtisodiyot bo'yicha ish haqi miqdorini baholash bo'yicha uslubiy nizom](#)



## Sirdaryo viloyatida Demografik holat

2025- yilning yanvar-iyun oylari uchun

- I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar
- II. Doimiy aholi soni
- III. Tug'ilganlar va vafot etganlar
- IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar
- V. Aholi migratsiyasi
- VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

### I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar

2025-yilning 1-iyul holatiga Sirdaryo viloyatining doimiy aholisi soni **938,5** ming kishini tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan **1,8** foizga ko'paygan. 2025- yilning yanvar-iyun oylarida tug'ilganlar soni **10,1** ming nafarni, vafot etganlar **2,2** ming nafarni tashkil etib, tabiiy o'sish **7,9** ming kishiga teng bo'ldi. Viloyatimizga xorijiy davlatlardan ko'chib kelganlar soni **21** kishini va viloyatdan xorijga ko'chib ketganlar soni **60** kishini, qayd etilgan nikohlar **2,4** mingtani, nikohdan ajralishlar **0,8** mingtani tashkil etgan.

Doimiy aholi soni	938,5	ming kishi
Tug'ilishlar soni	10,1	ming kishi
O'lganlar soni	2,2	ming kishi
Xorijdan ko'chib kelganlar	21	kishi
Xorijga ko'chib ketganlar	60	kishi
Nikohlar soni	2,4	ming birlik
Nikohdan ajralishlar soni	0,8	ming birlik



## II. Doimiy aholi soni


Sirdaryo viloyatida doimiy aholi soni 2025-yilning 1-iyul holatiga ko'ra **938,5** ming kishini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **16,4** ming kishiga, yani **1,8** foizga ko'paydi. Doimiy yashash hududi bo'yicha shahar joylarda **403,5** ming kishi (jami aholi soniga nisbatan **43,0** %), qishloq joylarda esa **535,0** ming kishi (**57,0** %) istiqomat qilmoqda. Ayollar soni **467,0** ming kishini (**49,8** %), erkaklar esa **471,5** ming kishini (**50,2** %) tashkil etmoqda.

### Doimiy aholi soni

(1-iyul holatiga, ming kishi)

	2024-yil	2025-yil	O'sish sur'ati, % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>922,1</b>	<b>938,5</b>	<b>101,8</b>
Guliston sh.	100,7	103,4	102,7
Shirin sh.	19,4	19,4	100,0
Yangiyer sh.	48,5	49,6	102,3
<i>tumanlar</i>			
Oqoltin	56,2	57,0	101,4
Boyovut	140,1	142,7	101,9
Sayxunobod	83,4	84,7	101,6
Guliston	80,3	81,7	101,7
Sardoba	70,8	71,8	101,4
Mirzaobod	81,2	83,2	102,5
Sirdaryo	138,2	140,2	101,4
Xovos	103,3	104,8	101,4


Sirdaryo viloyatida 2025-yil 1-iyul holatiga ko'ra 1 kvadrat kilometrga o'rtacha **219,3** kishi to'g'ri kelgan. (2024-yil 1-iyul holatiga 1 kv.km.ga **215,4** kishi).



### III. Tug'ilganlar va vafot etganlar

Sirdaryo viloyatida 2025-yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan tirik tug'ilganlar soni **10,1** ming kishini, har ming aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsienti **21,8** promilleni tashkil etdi. Tug'ilishlar soni 2025-yilning yanvar-iyun oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan **0,3** ming nafarga kamaygan.


Vafot etganlar soni 2,2 ming kishini, har ming aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti **4,7** promilleni tashkil etdi. Vafot etganlar soni 2024-yilning mos davrida nisbatan **0,1** ming nafarga ko'paygan.



Sirdaryo viloyatida tirik tugʻilganlar soni **10,1** ming kishini, shundan oʻgʻil bolalar soni **5,2** ming kishini (jami tugʻilganlar soniga nisbatan **51,9** %), qiz bolalar soni **4,9** ming kishini (**48,1** %) tashkil etdi.

Sirdaryo viloyatida vafot etganlar soni **2,2** ming kishini, shundan erkaklar **1,2** ming kishini (jami vafot etganlar soniga nisbatan **55,4** %), ayollar **1,0** ming kishini (**44,6** %) tashkil etdi.

#### Tugʻilganlar va vafot etganlarning jinslar boʻyicha taqsimlanishi, ming kishi




#### IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar

Sirdaryo viloyatida 2025-yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan nikohlar soni **2,4** ming birlik, har ming aholiga nikoh koeffitsiyenti **5,2** promilleni tashkil etdi. Nikohlar soni joriy yilning yanvar-iyun oylarida 2024-yilning mos davriga xam **2,4** ming birlikka toʻgʻri keldi.

Nikohdan ajralishlar soni **0,8** ming birlik, har ming aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti **1,7** promilleni tashkil etdi.


#### Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni, ming birlik



Sirdaryo viloyatida nikoh tuzganlar soni 2,4 ming birlikni, shundan shahar joylarida 1,2 ming birlikni, qishloq joylarida 1,2 ming birlikni tashkil etdi.

Sirdaryo viloyatida nikohdan ajralishlar soni 0,8 ming birlikni, shundan shahar joylarida 0,4 ming birlikni, qishloq joylarida 0,4 ming birlikni tashkil etdi.

**Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlarning  
shahar va qishloq joylar bo'yicha taqsimlanishi, ming birlik**



**V. Aholi migratsiyasi**


2025-yilning yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar jami soni 3 872 kishini, shu jumladan viloyatning boshqa hududlaridan ko'chib kelganlar 3 851 kishini, xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar 21 kishini tashkil etdi.

Ko'chib ketganlar jami soni 4 197 kishini, shu jumladan viloyatning boshqa hududlariga ko'chib ketganlar 4 137 kishini, xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar 60 kishini tashkil qildi.

**Ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni, kishi**

	Ko'chib kelganlar soni			Ko'chib ketganlar soni		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		ichki	tashqi		ichki	tashqi
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>3 872</b>	<b>3 851</b>	<b>21</b>	<b>4 197</b>	<b>4 137</b>	<b>60</b>
Guliston sh.	1 034	1033	1	691	678	13
Shirin sh.	127	126	1	163	163	-
Yangiyer sh.	479	468	11	388	388	-
<i>tumanlar</i>						
Oqoltin	226	226	-	255	245	10
Boyovut	485	485	-	550	548	2
Sayxunobod	227	227	-	224	222	2
Guliston	188	188	-	366	366	
Sardoba	174	174	-	334	332	2
Mirzaobod	452	444	8	346	344	2
Sirdaryo	157	157	-	400	372	28
Xovos	323	323	-	480	479	1

### Xorijdan ko‘chib kelganlar va xorijga ko‘chib ketganlar soni, kishi



### VII. Demografik ko‘rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama’lumotlari

Demografik ko‘rsatkichlarni shakllantirish maqsadida, Milliy statistika qo‘mitasi bilan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi o‘rtasida ma’lumotlar elektron almashinuvi bo‘yicha ushbu vazirliklarning birlamchi ma’lumotlar bazasiga integratsiya qilingan.

Demografik ko‘rsatkichlarni shakllantirish uchun zarur bo‘ladigan barcha zaruriy ma’lumotlar integratsiya orqali elektron shaklda olinishi sababli, alohida statistika kuzatuv shakli tasdiqlanmagan.

Demografik ko‘rsatkichlarni tavsiflovchi ma’lumotlarni shakllantirish maqsadida, statistika organlari tomonidan boshqa davlat organlari (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi)dan olingan aholining tabiiy harakati va aholi migratsiyasi to‘g‘risidagi birlamchi ma’lumotlar qayta ishlanadi.

Demografik ko‘rsatkichlar bo‘yicha statistik ma’lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- tug‘ilganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- o‘lim haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikoh tuzilganligi haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikohdan ajralganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- ko‘chib kelishni statistik hisobga olish varaqasi;
- ko‘chib ketishni statistik hisobga olish varaqasi ma’lumotlari.

Metama’lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/814-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirishda-fuqarolik-holati-dalolatnomalari-va-statistik-hisob-talonlari-ma-lumotnomalarini-kodlashtirish-bo-yicha-qo-llanma>

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/853-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirish-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

*Izohlar uchun*

---

---

**SIRDARYO VILOYATINING  
STATISTIK AXBOROTNOMASI  
2025- YIL YANVAR-IYUN**

**Nashrga mas'ul:**  
Statistika ishlarini tashkil etish va  
ma'lumotlarni tarqatish bo'limi  
tel. (0-367) 236-70-00 ichki tel. 20-05

Buyurtma raqami №\_\_ \_\_\_\_\_.\_\_\_\_.25 y. Tiraj \_\_ nusxa

*Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi  
Guliston sh., Birlashgan ko'chasi, 62-uy  
[www.sirstat.uz](http://www.sirstat.uz)*